

Mardon esa Momot boshliq gemmaliklarga xushxabarni yetkazish uchun tashqariga chiqib ketgandi.

Og'riqni qoldiruvchi ikki-uch ukol olgan bemor endi o'zini ancha durust his qilardi. U qizga sinovchan tikilarkan, xiyla bardamlik bilan:

— Siz meni nega Qora o'limdan saqlab qoldingiz? — deb so'radi.

Fotima gemmaliklar tilini mutlaqo bilmagani uchun hech narsaga tushunmadi. Lekin darrov o'rnidan turib, Mardon qoldirib ketgan tarjima apparatini oldi-da, boshiga kiyib, savolini takrorlashni iltimos qildi. Vakil savolini takrorladi.

— Odamlar hayotini muhofaza qilish biz vrachlarning burchimiz, — dedi unga javoban qiz.

— Odamlarning... Lekin meni... Ayting-chi, hayotimni saqlab qolganingiz evaziga, siz, sizning yerdoshlaringiz mendan nima boylik so'raysizlar?

— Bizga hech narsa kerak emas, — dedi qiz sovuqqina qilib, — koinotda ezgulik urug'larini tarqatish — biz yerlik fazogirlarning asosiy kasbimiz.

Vakil bu gapning mag'izini darrov chaqa olmadi shekilli, jim qoldi. Shipga tikilgan ko'zlari o'ychan va parishon ko'rindi.

Vakil shu alfozda anchagacha indamay yotdi.

— Yerliklarning bu hikmatli qonuniga to'la tushunib yetishga men ojizman, — dedi u nihoyat...

Mardon va Fotima robot bilan avtomobil-vertolyotda yerliklar istiqomat qiladigan uy tomonga o'tlanishganda, chor-atrofni quyuq tuman qoplagan, go'yo osmondagi hamma momiq bulutlar pastga tushib, Gemmani o'zining oppoq og'ushiga o'rab-chirmab olganday edi.

Kutilmaganda vertolyot oynasidan tushgan qizg'ish nurdan yigit va qizning ko'zlari beixtiyor qisildi. Ufqda quyosh balqib chiqmoqda, Momoda tong otmoqda edi...

I

O'z tabiatining aql bovar qilmaydigan darajada g'alati ekani bilan nom chiqargan bu sayyorani tadqiq etish Yerdagi odamlar uchun oson bo'lmadi. Unga avtomatik stansiya qo'ndirish uchun qilingan dastlabki urinish muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Avtomatik stansiya sayyora atmosferasiga kirishi bilan to'satdan Yer bilan aloqani uzib qo'ydi. Ko'p o'tmay teleekran orqali yerdan kuzatib turganlar portlash yuz berganini ilg'ay oldilar, xolos. Keyin ekranda jimir-jimir chiziqlar paydo bo'lib, oxiri hech nima ko'rinmay qoldi.

O'sha yilning kuzida sayyora atmosferasida yana bir dahshatli voqea yuz berdi. Yerda katta shov-shuv ko'tarilishiga sabab bo'lgan bu hodisa keyinroq tarix sahifalariga «Rene jumbog'i» degan nom bilan kirdi. Aslida voqea bunday bo'lgan edi: Buyuk Britaniyaning atoqli astronavi Bill Rene ikki sherigi – yosh fazogirlar Uolles va Vilson bilan birgalikda «Foton» yulduzkezar kemasida sayyoraning atmosferasiga kirishga muvaffaq bo'ldi. Ekipaj qimmatli ilmiy ma'lumotlar to'playotgani haqida Yerga bir necha fursat xabar berib turdi. Biroq yerdagilar kutilmaganda efir orqali Bill Renening qo'rqinch va dahshatga to'la hayajonli xitobini eshitishdi:

– Koinotda uchayotgan barcha fazogirlar va astronautlar! Bizni qutqaring!.. Halok bo'lyapmiz!.. Bizni qutqaring!..

Keyin radiopriyomnikdan fazoning allaqanday sirli shov-shuvi eshitildi. Yerda bu nidoni eshitganlarning barchasi taraddud va sarosimada qolishdi. Qiziq, nima hodisa yuz bergan bo'lishi mumkin?

Oradan lahza o'tmay, efirda yana Renening turli tilda gapirgan fojiali ovozi yangradi:

– ...Bizni qutqaring!.. На помощь! Vi asked salveyshin!.. Xilfen zi!.. Yana bir necha soatdan keyin halok bo'lamiz! Yana bir necha soatdan keyin...

Bu paytda mashhur fazogir, Azizov rahbarligidagi «Olmos» yulduzkezar kema ekipaji Serera sayyorasi tomon uchib bormoqda edi. Yordamga chorlovchi bu ayanchli nidoni koinotda birinchi bo'lib ana shu kema ekipaji eshitdi. Azizov ko'p ikkilanib o'tirmadi. Darhol halokatga yo'liqqan kema bilan aloqa o'rnatdi. Keyin, odaticha, sovuqqonlik bilan mikrofondagi engashdi:

– Diqqat! «Olmos» kemasi kapitani gapiryapti. Biz yordamga tayyormiz. O'zingiz kimsiz? Kemangiz turgan koordinatlarni ma'lum qiling? Qabulga o'taman...

Radiopriyomnikda shunday javob bo'ldi:

– «Olmos», shoshiling, shoshiling! Sizdan «Foton» kemasi kapitani professor Rene yordam so'rayapti. Biz... to'xtang!... — shu payt allanarsa yuz berdi shekilli, professorning dahshat ichida baqirgani, keyin g'oyatda tushkun ohangda negadir tovushi xirillab: — Bo'ldi, endi yordamingizga... hojat qolmadi... Kechikdingiz... Biz adoyi tamom bo'ldik! Alvido, do'stlar! — degani, bir necha fursatdan so'ng esa, allanimaning taraqlab ketgani eshitildi. O'sha zahoti aloqa ham uzildi...

Bu g'alati jumboq sinchkov va qobiliyatli fazogir Azizovga uzoq yillar davomida tinchlik bermadi. Qanday hodisa yuz borgan bo'lishi mumkin? Nima uchun «Foton» ekipaji bunchalik tez halokatga yuz tutdi? Azizov faqat o'sha dahshatli sayyorani ishg'ol qilgachgina, mazkur savollarga javob topishi mumkinligini yaxshi bilardi. Sereradagi ishlarini tugatgach, u Rene jumbog'ini hal qilishga qat'iy bel bog'ladi...

2

Boshliq — uzun bo'yli, ochiq chehrali, xiyla ozg'in kishi — har-har zamonda ko'zoynagini to'g'rilab qo'yib, kapitan Azizovga «Olmos»ning yangi ekipaj a'zolari haqidagi anketalarni o'qib bermoqda edi:

– Shavkat Aliyev, astronom, yigirma olti yoshda. Toshkentda tug'ilgan, Mirrix va Mushtariyni o'zlashtirishda ishtirok etgan. Har qanday sharoitda o'zini tuta biladigan jasur va og'ir tabiatli fazogir.

— Uken Avezov, geoximik, Olmaotada tug'ilgan, tovushdan tez uchar samolyotlar eskadrilyasida ikki yil xizmat qilgan. Saturnni o'zlashtirishda qatnashgan. Oshpazlikdan ham xabari bor. Hamma vaqt quvnoq, hamma vaqt xotirjam, ayni paytda g'oyatda dovyurak fazogir.

— Anna Shvars, — shu yerga kelganda Azizovning peshanasi tirishganday bo'ldi. U chap qo'lini shapaloq qilib, sekingina stolga «tap» etkizib qo'ydi-da, shartta Boshliqning gapini bo'ldi:

— Ayol kishini kemaga ololmayman!

— Shoshilmang, o'rtoq Azizov, siz uning qanday ayol ekanini bilmaysiz-ku!

— Bilishni ham istamayman. Chunki, mutlaqo notanish sayyoraga qilayotgan bu safarimizning qanchalik og'ir va xatarli ekanini mendan ko'ra ham o'zingiz yaxshiroq tushunasiz.

Boshliq o'rnidan turdi. Quyuq qoshlarini chimirgancha qovog'ini soldi — odatda jahli chiqqandagina shunday qilardi. Azizovga tikilib, bir zum sukutda qoldi. Keyin yana joyiga o'tirdi-da, biroz hayajonli tovushda dona-dona qilib gapira boshladi:

— Bu voqea fazo safari paytida bundan o'n ikki yil muqaddam sodir bo'ldi. Biz kemada besh kishi edik: men, Annaning ota-onasi — Kostya va Olya Shvarslar, vrach yigit Behzod va nihoyat Anna. Anna o'shanda to'qqiz yoshda edi. Biz o'n ikki yil muddatga safarga chiqqandik. Anna esa ana shu safar paytida dunyoga kelgandi. Safarimiz oxirlagan, Vega sayyorasi yaqinidan uchmoqda edik. To'satdan kemamizda yonilg'i zapasi tugayotgani ma'lum bo'ldi. O'sha paytlarda Vegada uran rudasining katta koni topilgan emasmi, bu bizga qo'l keldi, albatta. Lekin Vegadagiday sovuq va shavqatsiz iqlimga ega bo'lgan sayyoraga qo'nish biz uchun katta xavf tug'dirardi. Chunki sayyora yuzasidagi atmosfera o'z xususiyatiga ega bo'lib, Yer atmosferasidan keskin farqlanardi: Yerda yuz beradigan kuchli dovul, bo'ronlarga o'xshash qudratli havo oqimlari butun sayyora bo'ylab turli yo'nalishlarda uzluksiz harakat qilardi. Bordi-yu, fazo kemalari ana shu oqimlardan biriga tushib qolishsa, tamom, undan omon-eson qutulib chiqishlari amrimahol edi. Biz sayyoraga

kemamiz ortiga mahkamlangan aeroni qo'ndirishga qaror qildik. Ham osmonda, ham yerda, ham suvda harakatlana oladigan bu mashinani er-xotin Shvarslar boshqarib boradigan bo'lishdi. Chunki kapitan sifatida men kemani tashlab keta olmasdim. Behzodning ham bunga haqqi yo'q, chunki u vrach edi. Aeroni Vega atmosferasida boshqarish katta mahorat talab etardi. Arzimagan xato, jindek noto'g'ri harakat ham dahshatli halokatga olib kelishi hech gap emasdi. Lekin Shvarslar anoyi emas, katta tajribaga ega bo'lgan tug'ma fazogirlar edi. Xullas, ular safarga chiqishdi, biz esa maxsus ko'zgu orqali kuzata boshladik. Mana, ekranda ularning germoshlyom kiygan boshlari. Ikkalasi ham juda yosh. Aftidan, Olya hayajonlanardi. Lekin Kostya aeroni xotirjam boshqarmoqda. Kutilmaganda aero qalqib ketdi. Ekran oldida o'tirgan Anna beixtiyor qichqirib yubordi. Aero havo to'liqlaridan biriga duch kelgandi. Men darhol Annani quchoqlab, tinchitmoqchi bo'ldim. Aero katta tezlik bilan sayyora tomon qulab keta boshladi. Qudratli oqim xuddi o'z ustidagi xasni uloqtirib o'ynab, javlon urayotgan dengiz po'rtanasiday uni o'ziga ilashtirib olgan edi.

— Kostya, Olya! Bardam bo'linglar! Har nima qilib bo'lsa ham aeroni oqimdan chiqarishga harakat qilinglar! — deb baqirdim men mikrofonga.

Radiopriyomnikdan Kostyaning bosiq ovozi eshitildi:

— Xotirjam bo'ling. Vegaga tezroq qo'nish maqsadida shunday qilyapmiz. Oqimdan sayyora yuzasiga yaqinlashganda chiqib olamiz.

Yengil tortdim. Quchoq'imda o'tirgan Annaning ham chehrasi yorishganday bo'ldi. «Ular tezroq qo'nishmoqchi», dedi u menga bir qarab olib. Lekin ular o'zlarini oqimga urib harholda chakki qilishgandi. Bunday kuchli oqimdan chiqib olishning o'zi bo'ladimi, axir! Ozmuncha mahorat, kuch, sabot kerak bo'lmaydi buning uchun, ammo Shvarslarda bu xislatlar mujassam edi desam, sira yanglishmayman. Ko'p o'tmay, Kostya sayyoraga muvaffaqiyatli qo'nganlari haqida xabar qildi.

Xuddi shu payt Annaning qalbida bir umr chuqur iz qoldirgan mash'um hodisa yuz berdi. Daydi oqimlarning biri sayyoraning aero qo'ngan yuzasiga quyunday yopirildi-da,

mashinani yana osmoni falakka olib chiqib ketdi. So'ngra qanday tez olib chiqqan bo'lsa, xuddi shunday pastga olib tushib, zarb bilan Vega qoyalaridan biriga urdi. Ekranda kuchli portlash yuz berganini ko'rdik. Yuragim orqamga tortib ketdi. Anna chinqirib yig'lay boshladi. Shu topda uni ovutish, yig'idan to'xtatish Vega atmosferasidagi dahshatli havo oqimini to'xtatishday bir gap edi. Darhaqiqat, kechirib bo'lmas mash'um hodisa yuz bergandi. Bechora qiz bir vaqtning o'zida ham ota, ham onasidan ajraldi... Shundan keyin biz yonilg'i so'rab, Yerga murojaat qildik...

Oradan bir hafta o'tgach, Behzod, Anna va men omon-eson yerga qo'ndik. Annaning ahvolini bir ko'rsangiz edi o'shanda. Bechora ozib-to'zib ketgan, yig'layverganidan zangori ko'zlari kirtayib, jajji gavdasi undan battar kichrayib ketgandi. Uni men o'z tarbiyamga oldim. Oradan bir yil o'tdi. Ishonasizmi, shu vaqt ichida u shu darajada o'zgardiki, ko'rgan odam uni o'n yoshga kirgan deyolmas. Zotan, birdaniga kattalik nuqsi urib qolganday edi. Anna ba'zan kechalari ayvonga chiqib, yulduzli osmonga uzoq tikilib qolardi. Shu alfozda allamahalgacha turgach, xonaga qaytib kirardi-da, erkalaniib, odatdagi gapini aytardi:

— Dada (u meni «dada» deb atardi), katta bo'lsam, men ham fazogir bo'laman, xo'pmi!

— Xo'p, qizim. Maktabni bitirganingdan keyin o'zim o'qishga joylashtirib qo'yaman.

— Fazogirlar o'qishiga, — qo'shib qo'yardi Anna jiddiy, — ana shundan keyin biz uzoq sayyoralarga uchamiz, to'g'rimi?

— To'g'ri, qizim. Men doim seni birga olib yuraman.

— Ana o'shanda... ana o'shanda!.. — qizchani ro'parasidagi nuqtaga tikilgan ko'zlari shunaqa paytda yana g'azab o'ti bilan chaqnaib ketardi...

Shu payt eshik ochildi-da, ostonada sochi baland qilib turmaklangan, xipcha qomat kotiba qiz ko'rindi. U Boshliqqa murojaat qilib:

— Ular kelishdi, — dedi.

Boshliq Azizovga mamnunlik bilan ma'noli qarab qo'ydi-da, qizga:

— Ayting, kirishsin, — dedi.

Lahza o'tmay, xonaga ikki yigit va bir qiz kirdi. Ulardan biri barvasta qomat, quyuq qora qoshli, xushbichim chehrali yigit edi. U Azizov bilan qo'l berib so'rasharkan:

— Shavkat Aliyev, — deya o'zini tanitdi.

— Uken Avezov, — dedi ikkinchi yigit ham o'z navbatida qo'l olishib. Keyin, odati bo'lsa kerak, chap ko'zini qisib qo'ydi. Badanini jazirama quyoshda qoraytirgan bu yigitning kelishgan qaddi-qomati, tomirlari bo'rtib chiqqan kuchli bilaklari uning chayir va baquvvatligidan dalolat berib turardi.

Azizov qizga qaradi-yu, beixtiyor sergak tortdi. O'zi nima gap? Aftidan, u baland bo'yli, sochi chiroyli qilib turmaklangan, chehrasi sutga chayilganday oppoq bu qizning zangori ko'zlaridagi ma'yuslikni, ayni paytda nozik bir jangovarlik ruhini darrov ilg'ab oldi chog'i? Yo'q, kapitanning chehrasi biroz oqarib, ichidan zil ketganiga qaraganda, gap bunda emas edi.

— Anna Shvars, — dedi qiz nozikkina qo'lini uzatarkan, Azizovga tik boqib. «Olmos»ning kapitani bunday dadil boqishdan zavqlanibmi yoki uning ich-tashini Boshliqning hikoyasidan yaxshi bilib olgani uchunmi, qizga muloyim qarab turardi. Ha, bu qiz hozirgina Boshliq so'zlab bergan hikoyaning «qahramoni»ga juda-juda o'xshar, Azizov ham uni boshqacha emas, negadir faqat shunday tasavvur qilgan edi.

Fazogirlarning ko'rishib bo'lishlarini kutib turgan boshliq hammani o'tirishga taklif qildi. Ular bo'sh joylarni egallashgach:

— Shunday qilib, o'rtoqlar, — dedi xonaga kirgan fazogirlarga yuzlanib, — o'zingizga ma'lum bo'lganidek, sizlarni bo'lg'usi safaringiz rahbari, «Olmos» kemasining kapitani o'rtoq Azizov bilan tanishtirishga ruxsat beringlar.

Fazogirlar boshliqning o'ng yonida o'tirgan xotirjam qiyofali, jag' suyaklari turtib chiqqan, yuz tuzilishi to'rt burchakni eslatuvchi qirq besh-ellik yoshlar chamasidagi daroz kishiga yana bir karra razm solib qarashdi. Ha, bu qiyofa ularga gazeta va televideniye orqali juda yaxshi tanish edi. Zotan, shunday mashhur odam rahbarligida safarga chiqishga muyassar bo'layotganidan har birining qalbi cheksiz faxr, baxtiyorlik tuyg'usi bilan to'lgandi.

– Yana ta'kidlab o'taman, ekipajga yuklanayotgan vazifa g'oyatda jiddiy. Qisqacha qilib aytganda, siz Rene jumbog'ini hal qilmog'ingiz, bundan tashqari, Rene boshliq ekipaj tushgan sayyorani mukammal o'rganmog'ingiz lozim bo'ladi. Shu bugundan e'tiboran safar taraddudini ko'raveringlar. Start, taxminan, bir oydan so'ng bo'ladi. O'rtoq Azizov, agar iloji bo'lsa, mashqlarga shu bugundanoq kirishing. Hozircha gap shu. Savollar bormi?

Uken, odaticha chap ko'zini qisib qo'ydi-da, o'rnidan turdi:

– Sayyoraga «Olmos»da uchamizmi?

– Xuddi shunday. «Olmos» ko'p sinovlardan o'tgan, kuchli ion dvigatellariga ega bo'lgan ishonchli kema. O'ylaymanki, u yuzimizni yerga qaratmaydi.

– Tushunarli. – Uken joyiga o'tirdi.

– Boshqa savol yo'qmi? Unday bo'lsa, o'zingizni hozirdanoq o'rtoq Azizovning qo'l ostiga o'tgan, deb hisoblayveringlar. Endi ishga, o'rtoqlar! Sizlarga muvaffaqiyat tilayman!

3

O'sha kuniyoq fazogirlar turar joylarini o'zgartirishdi. Ularni turli sayyoralarga uchish taraddudini ko'ruvchi fazogirlar istiqomat qiladigan maxsus binoning birinchi qavatidagi alohida-alohida xonalarga joylashtirishdi. O'z xonasini saranjom-sarishta qilgan Anna Shavkat joylashgan xonaga kirib kelganida, Shavkat bilan Uken stol yonida bahslashib turishardi:

– Eynshteynning mashhur nisbiylik nazariyasini aytyapsanmi! – derdi Shavkat odaticha dadil tovush bilan, – fikringga qo'shilolmayman.

– Nima uchun?

– Shuning uchunki, bu nazariya o'z vaqtida juda ko'p munozaralarga sabab bo'lgan. Undan kelib chiqadigan xulosalar keyinchalik amalda isbotlangan bo'lsa-da, lekin ko'pchilik uning to'g'riligiga shubha bilan qaragan...

Shu payt ostonada turgan Annaga ko'zi tushgan Ukenning yuzidagi jiddiylik o'rmini darrov tabassum egalladi. U qo'llari

bilan reverans qilib, oyoqlarini chalishtirganicha qizga ta'zim qilarkan:

– Qirolicha janobi oliyalari Annaxonim tashrif buyurdilar! – deya xitob qildi.

Anna uning bu haziliga lablari bilan bilinar-bilinmas jilmayib javob qaytardi. Keyin, Ukenning qilig'idan kulib turgan Shavkatga qarab, jiddiy ohangda:

– Xo'sh, nima uchun shubha bilan qarashgan? – deb so'radi. Uning suhbatni davom ettirishga moyilligi shundoq sezilib turardi. Shavkat yana jiddiylashdi.

– Buning sabablari juda ko'p. Avvalo hammamizga ma'lum, Eynshteyn nazariyasi ba'zi masalalar bo'yicha o'sha davrda mavjud bo'lgan ko'p qonunlarga zid edi. Masalan, Nyutonning klassik mexanikaga oid mashhur qonunlariga. Bundan tashqari, bu nazariyaning to'g'riligini tasdiqlovchi tajribalar o'tkazish uchun ham hech qanday sharoit yaratilmagandi. Axir u paytda g'oyatda katta tezlikda, yorug'lik tezligiga yaqin tezlikda ucha oladigan kosmik kemalar qayoqda edi deysiz. Nisbiylik nazariyasi esa, hammamizga ma'lum, fazo, vaqt va bo'shliq haqida, jismlarning ana shunday katta tezlikda uchayotgan mahaldagi holati haqida bahs yuritadi.

– O'rtoq faylasuf, – Uken uni shunday deb atardi, – agar mumkin bo'lsa, voizlik qilishni to'xtatsangiz. Negaki, komandirimiz Azizov o'rnatgan kun tartibi bo'yicha hozir ovqat vaqti bo'ldi.

Anna «jim bo'l», deganday ohista uni qo'lidan tortib, tinchitdi-da:

– Ayting-chi, Shavkat, nisbiylik nazariyasi bo'yicha kema tezligi yorug'lik tezligiga yaqinlashganda, kemadagilar uchun vaqt to'xtaydi, shundaymi? – deb so'radi.

– Ha, deyarli to'xtaydi. Ayni paytda, o'sha kemadagilarning og'irligi ham, ko'rinishlari ham butunlay o'zgarib ketadi. Ajablanarlisi shundaki, kemadagilar hech nimadan taajjulanmaydilar. Og'irliklarining ortishi ham, qiyofalarining boshqacha bo'lib qolgani ham ularga qonuniydek, odatdagi hodisadek tuyuladi.

– Lekin esimda bor, o'tgan yili Mirrixga uchganimda, vaqtning sekin oqa boshlaganini sira his qilmagandim.

— Nisbiylik nazariyasining hayratlantiradigan joyi ham shunda-da! Yerda, o'zingizga ma'lum, bir sutka vaqt o'tganida, katta tezlikda uchayotgan kemadagilar uchun bir yoki ikki soat vaqt o'tgan bo'lishi mumkin va kemadagilar buni, hatto, sezishmaydi ham.

— Menga qaranglar, — dedi Uken, — aslida o'sha kemadagilar uchun ham bir sutka o'tsa kerag-ov, biroq katta tezlik tufayli soatlarining biror ishkali chiqib, vaqtni sekin o'tayotganday ko'rsatar balkim?

— Mutlaqo! — Shavkatning ovozi yanada dadilroq yangradi. — O'zingizga ma'lum, bundan uch yil avval Yupiterga uchgandim. O'shanda shunday g'aroyib hodisaning guvohi bo'ldim. Kemada navbatdagi hordiqdan so'ng turib yuvindim-da, hali uncha o'smagan soqolimni mashinada ola boshladim. Soqol ola turib zalda gapirib turgan televizorga ko'zim tushdi. Lektor bizning kosmik kemamiz haqida informatsiya bermoqda edi.

— ...Yupiterga qarab borayotgan bu kema ekipaji to'rtinchi sutka uchishda davom etmoqda...

— To'rtinchi sutka?! — Hayratdan qo'limdagi mashinka tushib ketay dedi. Axir bizning soatlarimiz bo'yicha kema start olganiga hali bir sutka ham bo'lmagandi-da! Men soatlarga ishonmasligim mumkin edi o'shanda. Lekin... soqolimni har kuni qirtishlab olardim, soqolim meni alday olmasdi. Unga qarab turib, kemamizda vaqtning Yerdagiga nisbatan g'oyatda sekin oqayotganiga beixtiyor iqror bo'ldim. Negaki, Yerda o'tgan to'rt sutka ichida soqolim bir kunda o'sadiganchalik ham o'sib ulgurmagandi-da!..

Shu payt Uken negadir taraddudga tushib, chap ko'zini qisib qo'ydi. Shavkat ham g'oz turganicha, jimib qoldi. Anna orqasiga o'girilib, ostonada turgan Azizovni ko'rdi. Kapitanining qovog'i soliq edi.

— Nima gap, o'rtoqlar? — dedi u fazogirlarni birma-bir o'zining sinchkov va talabchan nazari ostidan o'tkazib. — Anna Konstantinovna, kun tartibi buzilganining boisini qanday izohlab bera olasiz?

Anna bunday savolni kutmaganidanmi, biroq qimtinib turdi-da, odaticha shartta javob berdi:

- Kun tartibi atigi ikki minutga buzilsa buzilibdi-da.
- Fazoda taqdirimizni minutlar emas, sekundlar hal qilishi mumkin. Hammangizni ogohlantiraman: bundan buyon oramizda kimki belgilangan kun tartibidan bir daqiqaga bo'lsa-da chekinsa, unday fazogir bilan taqdirimizni birga qo'shib o'tirmay, fursat borida, ya'ni hoziroq xayrlashib qo'ya qolamiz. Savollar bormi?

Uken, hammasi tushunarli, deganday chap ko'zini qisib qo'ydi.

- Agar savollar bo'lmasa, ovqatdan so'ng trenajyorda uchrashamiz.

4

Trenajyor yulduzkezar kema maketi bo'lib, fazogirlarning safar oldidan mashqlar bajarishi, uchish manyovrlarini puxta o'zlashtirishlari maqsadida turli tadbirlar o'tkaziladigan asosiy joy edi. Sirtan qaraganda, u to'rt oyoqli bahaybat temir kitni eslatardi. Uning o'ng yonidagi ochiq lukka birinchi bo'lib kirgan Anna boshqarish apparatlari tomon yurarkan, o'zini xuddi rostdakam kema dagiday his qildi. Ketma-ket Shavkat va Ukenlar ham lukdan kirib kelishdi.

Trenajyorga Azizov kirganida, boshlariga germoshlyom, egnilariga uchish libosi kiygan fazogirlar programmada belgilangan joylarini egallashgan edi. Shavkat shturman stoli ortida turli apparatlar, ko'rsatuv asboblari to'la shchit qarshisida o'tirarkan, Azizovni ko'rgach, yon tomonida o'tirgan Ukenga bilinar-bilinmas bosh silkib:

- Kelyaptilar! – deb qo'ydi. Uken ham o'z navbatida chap ko'zini qisib, xabarni Annaga yetkazdi.

– Hozir, o'rtoqlar, – dedi Azizov boshqaruv pultidan joy olarkan, – «Olmos» «start» oladi. Bir necha soatlik uchishdan so'ng noma'lum sayyoraga qo'namiz. Ogohlantirib qo'ymoqchiman, sayyorada bizni nimalar kutayotganidan shaxsan mening ham xabarim yo'q. Zotan bu qisqa mashqdagi hayotimiz tasodiflarga to'la bo'lishiga shak-shubha yo'q. Shuning uchun ham «safariimiz»ning muvaffaqiyati har birimizning chuqur o'ylab harakat qilishimiz, tasodiflar oldida

o'zimizni yo'qotmasligimiz va mardona kurashishimizga ko'p jihatdan bog'liq. Bular esa, mening bilishimcha, ekipajning qo'lidan keladigan ish. Shunday qilib, tayyorlaninglar!

Lahza o'tmay, efirda Azizovning sovuqqon va qat'iy ovozi yangradi:

— Запуск!

— Есть запуск!

Qudratli ion dvigatelining shovqinidan kema larzaga kelganday bo'ldi. Azizov komanda punktiga doklad qildi:

— Yer, «Olmos» start olishga tayyor!

Fazogirlarning naushniklarida KP navbatchisining unga javoban:

— Startga ruxsat beraman! — degani eshitildi.

Kapitaning yana qat'iy ovozi yangradi:

— Diqqat! Start!

Kema o'sha zahoti paydo bo'lgan qudratli tortish kuchidan qalqib ketganday bo'ldi. Negadir Annaning yuragi shuv etib ketdi. Lekin darrov o'zini bosdi.

— O'rtoqlar, bir necha daqiqadan so'ng vaznsizlik holati yuz beradi. O'rindiqlardagi belbog'larni bog'lab olishingizni so'rayman.

Anna beliga belbog'ini bog'lab ham ulgurmagandiki, kutilmaganda o'zini xuddi suvdagiday yengil his qila boshladi. U boshini ko'tarib yuqoriga ko'zi tushdi-yu, angrayib qoldi. Uken bir qo'li bilan o'zi o'tirgan o'rindiq belbog'ini mahkam ushlaganicha, oyog'i osmondan bo'lib kema shipiga tegay deb turardi. Aftidan, yigit vaqtida belbog'ini bog'lashga ulgurmay qolgan edi. Anna shu payt Shavkatning ohista harakat bilan qo'lini uzatib, sherigini joyiga o'tqazgani, keyin belbog'ini bog'lashga yordamlashganini ko'rdi. Unga javoban Ukenning:

«Rahmat, Faylasuf!» — deganini eshitib kulib qo'ydi. Vaznsizlik holati yo'qolgach, Azizov o'rnidan turdi.

— Belbog'larni yechishingiz mumkin. Lekin germoshlyomlar yechilmasin. Bir necha daqiqadan keyin o'zga «sayyora»ga qo'namiz.

Qo'nish fazogirlar kutganichalik vahimali bo'lmadi. Vahimali hodisa kema yonidagi luk ochilganida sodir bo'ldi. Qo'lida lazer-to'ppocha ushlagan Shavkat lukdan sakrab pastga tushdi-yu, atrofga alanglab, qorayib turgan allanimalarga ko'zi

tushdi. Hammayoqni oqish tuman qoplagan, aftidan, ular «start» olishgan mahalda kema katta mashq zallaridan biriga olib kirib qo'yilgan edi. Uken Shavkatning oldiga chiqqanida haligi qora narsalar qayoqqadir g'oyib bo'lishgandi.

— Senga shunday tuyulgandir, — dedi Uken oldinga tikilarkan, odaticha chap ko'zini qisib.

Lekin ular yanglishishgandi. Negaki lahza o'tmay, fazogirlarning qarshisidagi tuman orasida ikki qomatdor gavda paydo bo'ldi va qizg'ish rangda porlayotgan ko'zlarini yigitlarga tikib, sekin-asta kemaga yaqinlashib kelaverdi.

— Orqaga! — dedi Uken baqirguday ovozda haligi gavlarning g'alati nigohidan eti junjikib.

Ular orqaga qaytishga ulgurishmadi. Avval Shavkatning, keyin Ukenning yuzidagi sergaklik favqulodda allaqanday loqayd va sovuqqon bir ifoda bilan almashindi-da, fazogirlar g'ayrixtiyoriy ravishda boshlarini quyi solib, haligi gavlalar sari yurishdi.

— Gipnoz!.. Ularni gipnoz qilib qo'yishdi!.. — xitob qildi fazogirlarni illuminator orqali kuzatib turgan Anna hayajonlanib. Uning yonida turgan kapitan chehrasida esa hech qanday o'zgarish bo'lmadi. Lekin shu zahotiyoy o'rnidan irg'ib turib lazer-to'pponchasini olib, lukka otilgan ham ediki, qiz uni qo'lidan ushlab qoldi:

— O'rtoq komandir, sizga mumkin emas. Ruxsat eting, men. — Anna e'tirozga o'rin qolmaydigan ohangda shunday dedi-da, tashqariga yo'naldi. Gavlalar — robotlar ekaniga qizning darrov aqli yetgandi. Lahza o'tmay, Azizovning og'zi ochilib qoldi: qo'lida lazer-to'pponcha tutgan Anna tirsagi bilan ko'zlarini berkitganicha bir zumdayoq haligi noma'lum kimsalar yonida paydo bo'ldi-da, ular yerda sudrab kelayotgan ingichka kabel-simlarni o'qqa tutib, uzib tashladi. O'sha zahoti robotlarning porlab turgan ko'zlari ham so'ndi-qoldi. Anna simlarni uzib, ularni energiya manbasidan mahrum qilgan edi. Ayni paytda robotlar gipnoz qilish qobiliyatlarini ham yo'qotishgandi.

Ko'p o'tmay yigitlar o'zlariga kelib, qizning ortidan kema sari yurishar ekan, ularning yonida boshliq paydo bo'ldi:

— Balli, Anna! — dedi u qizning yelkasiga qoqib. — Eng oqilona qaror qabul qilding.

Yoshlar luk orqali kemaga kirisharkan, Azizov Annaga beixtiyor jilmayib qaradi. Bu uning fazogirlar oldida birinchi jilmayishi edi. Ehtimol aslida kamdan-kam jilmayadigan bu odamning qalbida ko'zlari ma'yus, ammo o'zi mardonavor qiz Annaga nisbatan qandaydir iliq bir hissiyot uyg'ongandir. Balki...

5

«Olmos»ning kapitanini ikkinchi bor jilmayishiga majbur etgan hodisa oradan bir oy o'tgach, kema Vega yaqinidan uchib ketayotganida sodir bo'ldi.

Uchish dasturiga muvofiq «Olmos» Vega orbitasida to'xtab, mazkur sayyoradagi ajoyib yonilg'i manbayi — uran rudasidan yetarlicha g'amlab olishi kerak edi. Sayyoraga qo'nishni endi aeroda emas, «Olmos»ning bortiga mahkamlangan «Burgut» nomli kosmoxodda Shavkat bilan Anna amalga oshirishi lozim edi. Veganing asov atmosferasi endilikda «Burgut» singari zamonaviy kosmoxodlar uchun aytarli katta xavf tug'dirmasa ham, lekin odatda sayyoraga qo'nish uchun eng tajribali fazogirlar yuborilar edi.

— Anna Konstantinovna, — dedi Shavkat kayut-kampaniyada uchish libosini kiyar ekan, — menimcha, o'rningizga Uken uchganida har holda yomon bo'lmasdi.

Annaning ko'zlarida to'satdan g'azab uchquni chaqnadi. Unga yeb qo'ygudek tikilarkan, tovushi bo'g'ilib dedi:

— Bu gapni bir aytdingiz, ikkinchi ayta ko'rmang. Aks holda...

Qizga germoshlyomini kiyishida yordamlashayotgan Uken uning gapini hazil bilan tugatdi:

— Aks holda kuningiz trenajyordagi sehrgar robotlar holiga tushadi.

Uken ularning kulib yuborishlarini kutgan edi. Lekin Shavkat ham, Anna ham miq etmadi. Aksincha, qiz qandaydir ma'yus va parishon bo'lib qolgan. Shavkat esa, unga hayrat bilan tikilar, zotan qizni hech qachon bunday ahvolda ko'rmagan edi.

Ha, Anna hozir yana o'z xayollariga berilgandi. Axir bundan bir necha yil muqaddam u xuddi shu joyda, xuddi

shu yovuz sayyora ustida sevimli ota-onasidan judo bo'lgai edi-da!

Qiz kosmoxodga chiqqanida undagi g'amgin kayfiyat yo'qolmagan, lekin ko'zlariga sinchiklab qaragan odam ulardagi allaqanday asabiy bir ifodani ham ilg'agan bo'lur edi.

Annaning kosmoxod shturvalini tutgan kuchli qo'llari harakatlarida ham qandaydir asabiylik, ayni paytda qat'iyatni payqash qiyin emasdi. U shu topda aziz ota-onasining porloq xotirasi uchun quturgan havo oqimlaridan, shafqatsiz sayyoradan qasos olishga ahd qilgan. Ha, u albatta, o'z aytganining ustidan chiqadi! U yengadi! Boshqacha bo'lishi mumkin emas.

Kosmoxod to'satdan qalqib ketdi. Kemadagi maxsus ko'zgu oldida o'tirgan Uken qichqirib yuborayozdi. Mashina birinchi havo to'lqiniga duch kelgan edi. U katta tezlik bilan pastga tushib keta boshladi. Qudratli oqim xuddi o'z ustidagi xasni uloqtirib o'ynab, javlon urayotgan dengiz po'rtanasiday, uni o'ziga ilashtirib olgan edi.

Azizov mikrofondga engashdi.

— Shavkat, Anna! — dedi u iloji boricha xotirjam gapirishga tirishib. — Ehtiyot bo'linglar! Kosmoxodni darhol oqimdan chiqarishga harakat qilinglar!

Radiopriyomnikdan Annaning bosiq, ammo biroz asabiy ovozi eshitildi:

— Xotirjam bo'ling, o'rtoq komandir. Vegaga tezroq qo'nish uchun shunday qilyapmiz. Oqimdan sayyora yuzasiga yaqinlashganda chiqib olamiz.

Azizov tanida chumoli yugurganday seskanib ketdi. Yodiga Boshliq hikoya qilib bergan — er-xotin Shvarslar fojiasi tushgan, Anna hozir marhum otasi aytgan gapni aynan takrorlagan edi. Kapitan allaqanday sovuq ko'ngilsizlikni oldindan sezayotganday vujudi muzlab, yana mikrofondga engashdi:

— Buyuraman: kosmoxodni darhol oqimdan olib chiqinglar! Eshityapsizmi, darhol!

Shavkat oradan ko'p o'tmay, sayyoraga muvaffaqiyatli qo'nganlari haqida xabar qildi.

— Kosmoxodni tezda anavi qoya panasiga olish kerak, — dedi Anna Shavkatga g'o'dayib turgan balandlikni ko'rsatib, — yo'qsa, daydi oqim uni osmonga olib chiqib ketishi hech gap emas.

Kosmoxodni panaga qo'yganlaridan so'ng, rudani topish qiyin bo'lmadi. Ajoyib qazilmani maxsus asbob yordamida kosmoxodning yon-atrofida yotgan toshlar tarkibidanoq ajratib olishdi. Endi ularning oldida omon-eson «Olmos»ga qaytib borish vazifasi turardi. Ammo bu hazilakam ish emas edi. Mashina Vega yuzasidan endi ko'tarilganida, quyunday yopirilgan daydi oqimlardan biri uni yana o'ziga ilashtirib oldi. U osmoni falakka ko'tarilarkan, to'satdan ikki oqim uchrashib o'zaro kesishgan joyda chirpirak bo'lib aylanib ketdi. Shavkatning boshi zarb bilan kosmoxod shipiga urilib, hushidan ketayozdi. Lekin, xayriyat, germoshlyomi zarar ko'rmadi. Shturvalni mahkam ushlab olgan Anna esa, mukkasidan tushishiga oz qoldi.

Ekran oldida o'tirgan Uken hayajondan baqirib yuborgudek holatda edi.

«Aslida chakki qildim, — o'ylardi Azizov ham hayajonini zo'rg'a bosib, — Annaning o'rniga Ukenni yuborsam bo'lar ekan!»

Lekin u shu lahzadayoq bu fikridan qaytishga majbur bo'ldi. Negaki «Burgut»ni boshqarayotgan Anna shu topda to'g'ri kursga tushib olgan, kosmoxodni g'oyatda katta tezlik bilan «Olmos» tomon haydab kelmoqda edi. Mana, mashinaga quturgan oqim yana hamla qildi. Lekin Anna anoyi emas, ustalik bilan unga chap berdi-da, yana kursni kema tomon to'g'riladi.

Azizov Annaning ekranda kosmoxod oynasi ortidan ko'rinib turgan shiddatkor qiyofasiga tikilarkan, ikkinchi marta beixtiyor jilmayib qo'ydi. Ha, chamasi, bu ajoyib qizning nimasidir uni o'ziga tobora rom etayotganiga shu topda iqror bo'lgandi. Lekin aslida shundaymikin?

Anna kemaga yelkasidagi og'ir yukdan bo'shaganday yengil tortib kirdi. Butun vujudidan shodlik ufurib turardi: bugun qizning ko'p yillardan beri yuragiga tinchlik bermay kelayotgan orzusi ushalgan, u sovuq Vegadan, quturgan atmosfera oqimlaridan ustun kelib, aziz ota-onasining muqaddas xoki hurmati, ularning porloq xotirasi sharafiga, go'yo dahshatli sayyoradan qasos olgan edi. Hozir qiz qalbi ana shu g'alaba, ana shu intiqom lazzati bilan tepayotgandi.

Kayut-kampaniyada ularni Azizovning o'zi qarshi oldi. Uken boshqaruv apparati yonida qolgan edi.

— Sizlarni birinchi muvaffaqiyat bilan tabriklayman! — dedi kapitan birma-bir fazogirlarning qo'lini samimiy qisib.

«Olmos»ning kayut-kampaniyasi ixchamgina zal bo'lib, poliga qalin sharq gilami to'shalib, o'rta stol va kreslolar qo'yilgan edi. Shavkat boshidan germoshlyomini ohista yechib oldi-da, stolga qo'ydi. Keyin o'zini bo'sh kresloga tashlab, peshanasini siypalab ko'ra boshladi.

— G'urra bo'libdimi? — so'radi Azizov mehribon tovushda. — Agar shunday bo'lsa, tiklov kamerasiga yotqizishga to'g'ri keladi.

— G'urra qayoqda, arzimagan narsa, — dedi Shavkat qo'l siltab.

Bu paytda dimog'ida allaqaysi kuyni xirgoyi qilib, uchish kostumigacha yechib ulgurgan Anna Shavkatning tepasiga kelib, chaqqonlik bilan uning peshanasini silab ko'rdi-da:

— Ha, rostdan ham g'urra deyishga arzimaydi. Lekin bir oz vaqtga kompress qilib tang'ib qo'yilsa zarar qilmaydi, — dedi. Anna kemada vrach vazifasini ham bajarardi.

— Mayli, shunday qila qoling, — dedi Azizov. Keyin kemandagi boshqaruv apparatlari joylashgan bo'limi tomon keta turib: — Sizlarga to'rt soat dam olishga ruxsat beraman, — deb qo'shib qo'ydi.

Ha, ular endi oyoqlarini cho'zib o'tirishlari, istagancha suhbatlashishlari mumkin edi. Odatda kapitan bunday ruxsatnomadan so'ng qancha vaqtni aytgan bo'lsa, o'shancha fursat, albatta, fazogirlarni xoli qoldirardi.

Anna lahza o'tmay, spirtga botirilgan oppoq bint ko'tarib chiqdi-da, Shavkatning peshanasi aralash boshini tang'ishga kirishdi:

— Qiziq shuncha katta tezlikda uchyapmiz-ku, lekin boshingiz Yerda qanday bo'lsa, xuddi shunday dum-dumaloq. Axir Eynshteynning mashhur qonuniga ko'ra, bunday tezlikda tanamiz hajmi eniga bir necha o'n karra kichrayib qolishi kerak edi-ku?

Shavkat jonlanib ketdi. Uzoq o'tmishda yashagan atoqli fizikning qonunlari, umuman, ilm-fan mavzuida gap ketganida, darrov uning chehrasi ochilib, ko'zlari charaqlab ketar edi.

— Bir-birimizning tanamiz kichrayganini hozir payqay olmaymiz. Negaki, biz nisbatan deyarli harakat qilmayapmiz-

da. Buni payqash uchun esa, siz men o'tirgan kemani Yerdan yoki bizga nisbatan harakatda bo'lmagan biror joydan turib kuzatishingiz lozim bo'ladi.

— Bordi-yu, shunday qildim ham deylik...

— Ana o'shanda siz ajoyib voqeaning guvohi bo'lardingiz. Ya'ni ko'z oldingizda cho'zinchoq, kitsimon «Olmos» o'mida allaqanday yassi bir kema, mening o'mimda esa, boshining ham, yelkalarining ham, xullas, butun tanasining eni atigi bir necha millimetr bo'lgan qandaydir yassi bir odam paydo bo'lardi.

— Negadir sira aqlimga sig'mayapti, — Anna bintni o'rab bo'lgach, boylash uchun o'rtasidan parillatib yirtidi.

— Bu yerda aqlga sig'maydigan hech nima yo'q. Gap shundaki, yorug'lik tezligiga yaqin tezlikda uchgan har qanday elektron, atom, molekula, xullas, barcha elementar zarrachalar kichrayish xossasiga ega. Chunonchi, ulardan tashkil topgan jismlar ham kichrayishi lozim. Eynshteyn nazariyasidan kelib chiqadigan asosiy xulosalardan biri ham mana shu.

Anna bintni boylab bo'ldi-da, Shavkatning qarshisidagi kresloga o'tirdi.

U qisman tushungan bo'lsa-da, lekin bari bir asosiy g'oya, masalaning ichki mohiyati unga qorong'iligicha qolgan edi. To'g'ri, qiz o'rta maktabda va fazogirlar bilim yurtida o'qiganida, fizika darsida bu ajoyib nazariyani yaxshi o'zlashtirib oldim, deb o'ylagan edi. Aslida esa... Darvoqe, bu qonun kashf etilgan davrdan keyin bir necha o'n yil mobaynida tan olinmagani ham bejiz emas. «O'tmishda xo'p olimlar o'tishgan ekan-da, — o'yladi qiz, — ular kashf etgan qonunlar ustida, hatto shu paytgacha bosh qotirishga to'g'ri keladi».

— Vega tadqiqotchilariga shon-sharaflar! — kayut-kampaniyaga qo'lida noz-ne'matlar bilan to'la patnis ko'tarib, Uken kirib keldi. U patnisni stolga qo'ydi-da, qo'llarini yozib va oyoqlarini chalishtirib Annaga ta'zim qilarkan: — San'at-ingizga tasanno, qirolicham! Olamshumul g'alabalar-ingiz muborakbod bo'lsin! Manavi qovurdoq va ajoyib ichimlik ushbu g'alaba sharafiga o'zlarini qurbon etishga tayyordirlar! Qani, do'stlar, birgalashib ularning kallasini tanidan judo aylaylik! — dedi odaticha chap ko'zini qisib.

Hammalari xaxolab kulib yuborishdi. Shavkat gurkirab turgan taom hididan mast bo'lib, qo'llarini bir-biriga ishqalar ekan:

— Shaxsan men bunday chora-tadbir o'tkazishga sira qarshi emasman! — dedi.

Anna qo'lini qoshiqqa uzatib:

— Men ham! — dedi jilmayib.

— Agar, — dedi Uken po'pisa qilib, — ovqatdan bir qoshiq ortib qolsa ham, «ajoyib oshpaz» degan maqtovlaringizni tan olishdan voz kechaman!

Shavkat qadahlarni xushbo'y hidli fazo ichimligiga to'ldirarkan:

— Eh, qani endi mana shu ichimlikka yarasha Toshkent-ning sergo'sht palovi bo'lsa! — deb qo'ydi.

— Qozoqning beshbarmog'i bo'lsa ham yo'q demas edim, — dedi Uken chap ko'zini qisib.

— Kimga nima, — dedi Anna, — lekin shaxsan men uchun hech biri manavi qovurdoqqa yetmasa kerak...

Shavkat birdan jiddiy tovushda:

— Kapitan kelmaydilarmi? — deb so'radi.

— Yo'q, keyinroq ovqatlanaman, deyaptilar.

— Bo'lmasa, qani ishga, do'stlar!

Bu paytda boshqaruv apparatlari oldida o'tirgan Azizov kayut-kampaniya tomonidan kelgan qadahlar jarangini eshitib, ma'yus jilmayib qo'ydi. Katta-katta ko'zlarida sovuqqonlik, qat'iyatdan boshqa ifoda kamdan-kam aks etadigan bu odamda bunday tushkun kayfiyat paydo bo'lishining boisi nimada ekan?

6

Fazogirlar kemada navbat bilan dam olishardi. Kapitan navbati kelib, dam olishga yotganida ham chehrasidagi ma'yuslik yo'qolmagan edi. U ko'zlarini yumdi. Lekin uyqu qayoqda deysiz? U Anna haqida o'ylardi. Ajoyib qiz. Uken aytganiday, xuddi qirolichadek go'zal, nafis. Ayni paytda navqiron yigitlarday mardonavor. Qiz o'zining ana shu go'zalligi va nafosati bilan kapitanga marhuma Klarani eslatardi. Annaning yalt etib qarashlari, keskin maneralarida ham Klaraniki bilan qandaydir o'xshashlik, umumiylik borday edi.

Klara!.. Ko'zlari hamisha g'amgin bu ma'suma ayolni u hech qachon unutmasa kerak. U bilan so'nggi bor xayrlashgani xuddi kechagiday hamisha yodida.

Serera qudratli atom elektrostansiyasi qurilishi endi boshlangan bo'lib, Azizovni o'sha sayyora aloqa kemasi kapitani sifatida jo'natishga qaror qilishgan edi. U o'zi bilan sevimli rafiqasini ham olib ketishga qancha harakat qilmadi o'shanda. Baribir bo'lmadi. Vrachlar ruxsat berishmadi. Klaraning organizmi Serera sharoitida yashashga mutlaqo moslana olmas ekan. Sayyora tabiatidagi qandaydir o'ziga xos alohida xususiyatlari tufayli ayollar u yerda og'ir kasallikka chalinishi hech gap emas, deyishdi. Azizov, nima uchun men kasal bo'lmayman-u, xotinim kasal bo'lishi kerak, deya shovqin ko'tardi. Agar ishonmasangiz, tajribada ko'rsatishimiz mumkin, deyishdi vrachlar. Keyin uni allaqanday katta laboratoriyaga boshlab kirishdi. O'rtada doira shaklidagi katta shisha bilan o'ralgan stol turardi.

— Mana bu shisha ostiga, — dedi ko'zoynakli yosh vrach ayol, — Serera havosi qamalgan. Hozir unga ikkita — er va urg'ochi kalamushlarni keltiramiz. Ikkalasi ham sog'lom kalamushlar.

Lahza o'tmay, shisha ostida ikki kalamush paydo bo'ldi. Ular avvaliga hech narsa bo'lmaganday u burchakdan-bu burchakka yugura boshladi. Lekin birozdan so'ng kalamushlardan biri mukkasidan tushib, xuddi bo'g'ilayotganday goh u yoqqa, goh bu yoqqa ag'anashga tushsa bo'ladimi!

— Ko'rdingizmi, — dedi vrach, — kalamushlardan biri, mutlaqo sog'lom bo'lishiga qaramay, Serera atmosferasida yashashga qodir emas ekan. Chunki uning organizmi bergan reaksiya...

Azizov vrachning qolgan gapini eshitmadi. Qo'l siltab, chiqib ketdi. Bu vrachlarga bir nimani tushuntirib bo'larmidi o'zi?.. Bularday o'jar xalq bo'lmasa kerak dunyoda.

Azizov uyiga qaytdi-da, rafiqasiga qovog'ini solib:

— Besh yil muddatga ketyapman. Sen Yerda qolasan, — dedi.

Agar u qovog'ini solib gapirmaganida, Klaraning uvvos tortib yuborishi hech gap emas edi. Ammo, baribir, Klara piqillab yig'laganicha, o'zini erining ko'ksiga otdi:

– Yubormayman, jonginam! Hech qayoqqa yubormayman!..

Azizov bunday katta muddatga ilgari sira uchmagan edi. To'g'ri, u bir yil, yarim yilga hali Mirrix, hali Zuhroga borib-kelib turardi. Klara o'sha qisqa muddatli safarga ham uni yig'i-sig'i bilan, yuragining bir parchasi uzilganday qiynalib uzatardi. Bu gal esa...

– Tushunsang-chi, azizim! Besh yil nima degan gap, axir. Birpasda o'tadi-ketadi. Mana, ko'rasan...

– Yo'-o'q-yo'q-yo'q! Istamayman, jonginam!! Istamayman! – Klara xuddi eri hozir ketib qoladiganday mahkam quchoqlab oldi.

Azizov xotiniyning g'amgin chehrasiga, yoshli ko'zlariga tikilardi... U o'shanda Klarani bir amallab ko'ndirgan bo'lsa-da, xotiniga yuragi achishib, o'zi ichidan zil ketgan edi. Ertasiga xayrlashgani kosmodromga kuzatib chiqqan Klaraning rangida rang qolmagan, qovoqlari qizarib, ko'zlari ich-ichiga botib ketgan, aftidan, u jonidan aziz ko'rgan eri bilan bu xayrlashuvi eng so'nggisi ekanini o'shandayoq payqagan edi.

Sevimli rafiqasining yosh to'la ma'sum ko'zlari hamon Azizovning ko'z o'ngida turibdi. O'zining ko'ngli ham qanchalik g'ash edi-ya, o'shanda.

Shundan keyin Azizovning umri fazo yo'llarida o'ta boshladi. U o'z kemasida Sereradagi atom elektrostansiya qurilishi uchun hali Mirrixdan turli elektr agregatlari keltirar, hali Urandan turbina va reaktor qismlarini tashir, xullas, odam qadami yetgan hamma sayyoralarga stansiya ehtiyojini qondirish maqsadida borib-kelib turardi. Azizovning g'alati bir odati bor edi. U xat yozishni o'lgudek yomon ko'rardi. Oh-voh qilib yoziladigan maktublar kishini ortiqcha ko'ngilchan qilib qo'yadi, irodasini susaytiradi, bu esa, fazogir uchun g'oyatda xavfli deb hisoblardi u. Buning ustiga, besh yil – uzoq sayyoralarga uchadigan kema kapitani uchun besh kunday arzimagan muddat edi. Shuning uchunmi, Azizov xotinidan kelgan xatlarni yig'ib qo'yib, imkoni bo'lganida o'qimasdanoq yoqib yuborardi.

Oradan to'rt yil o'tdi. Azizov bu to'rt yilning deyarli uch yilini fazoda, kosmik tezlikda uchib o'tkazdi. Tabiiyki, bu to'rt yil Azizovning ekipaji uchungina... Aslida esa, Sererada

olti yildan ortiq vaqt o'tgan edi. Axir yorug'lik tezligiga yaqin tezlikda uchgan fazogirlar uchun vaqt, o'z orbitasida ohista aylanib uchib yurgan sayyora yoki Yerdagiga nisbatan sekinroq oqadi-da!

Yerda-chi? Buni qarangki, Yerda bu davr ichida to'qqiz yil o'tib ketgan edi. (Aftidan, Serera o'z orbitasida Yerga nisbatan tezroq aylanardi.) Azizov buni kutilmaganda Yerdan o'z nomiga kelgan kosmogrammadan payqadi. Kosmogrammada kapitanni sochlarini changallab, o'zini stulga tashlashga majbur etgan ushbu sovuq satrlar bitilgan edi: «Hurmatli Azizov vrg rafiqangiz yurak kasaliga chalinib to'satdan vafot etdilar nqt Tezdan kelishingizni so'raymiz nqt».

Azizov o'sha kuniyoq Yerga uchdi-yu, hayotida birinchi bor vijdon azobiga uchradi. Klaraning o'limiga faqat o'zim aybdorman, deb pushaymon qildi kapitan. To'g'ri, uning o'zi ham uzoq safar vaqtida sevimli rafiqasi hajrida ancha firoq chekdi. Biroq og'ir va bosim ish bilan bo'lib, uni unutib qo'ygan mahallari ko'p bo'lgan. Lekin Klara-chi? Bu ayolning bir daqiqa ham erini xayolidan chiqarmaganiga Azizov tariqcha shubha qilmasdi. Ana shunday jon-dili bilan sevardi uni Klara! U esa, ana shunday pokiza muhabbatni oqlay olmadi. Nontepkilik qildi. Natijada...

Azizov yotgan joyida achchiq dori ichib yuborganday aftini burishtirib, u yonidan-bu yoniga ag'darildi. Kapitan endi boshqa uxlay olmasligiga ko'zi yetgan, o'z hissiyotlariga berilib, kun tartibini buzgan, uxlamagan edi.

— Eh, Anna, Anna, — deb qo'ydi u sekingina, chuqur xo'rsinib. — Nima falokat bosib seni kemaga ola qoldim-a?!

7

Klaraning o'limidan keyin Azizov o'z hayotini butunlay fazoga, uzoq sayyoralarni o'zlashtirishga bag'ishladi. Sererada gigant atom elektr stansiyasi qurilishi bitguncha o'sha atrofdagi sayyoralarga to'xtovsiz borib-kelib turdi. U o'z ishini g'oyatda yaxshi ko'rar, lekin, baribir o'z hayotida Klaraning o'rmini deyarli har qadamda his qilardi. Ilgari kapitan, xotanim ko'zlari to'rt bo'lib meni kutib o'tiraveradi, degan tushuncha bilan yashab, qadriga uncha yetmagan, uning vafotidan keyin esa

ko'zi ochilib, o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan edi. U rafiqasini xuddi Klara singari kuchli muhabbat bilan sevishini endi butun vujudi bilan his qilmoqda edi. Lekin bu muhabbat kechikkan, istiqbolsiz muhabbat bo'lib, nazarida, endi uning hayoti bo'shliqqa aylangandi.

Azizov ana shu og'ir hissiyotlar iskanjasida yurganida Rene voqeasi ro'y berdi-yu, joniga oro kirdi. U endi ish, faqat bosim ish bilangina o'zini biroz chalg'itishi mumkin edi. Shuning uchun ham Sererada atom elektr stansiyasi qurilishi tamom bo'lgach, Yerga qaytdi-da, Rene jumbog'ini tezlik bilan hal qilish borasida qizg'in ish boshlab yubordi...

Kapitan boshini ko'tarib, soatga qaradi. Dam olish vaqti tugagan edi. Yotgan joyidan turib o'tirdi, ikki chakkasini qo'llari bilan qisib, xuddi og'ir o'ylardan xalos bo'lmoqchiday, boshini bir-ikki vazmin silkitdi. So'ngra tezgina kiyinib, eshik tomon yurdi.

Boshqaruv pulti yonida Uken o'tirar edi. U odaticha chap ko'zini qisib qo'yib:

– Yaxshi yotib turdingizmi, o'rtoq kapitan? – deb so'radi.

– Rahmat, juda yaxshi. – Azizov istehzo bilan iljayib qo'ydi.

Keyin o'lchov asboblari mahkamlangan doskaga imo qilarkan, odatdagidek sovuqqonlik bilan:

– Hech qanday o'zgarish yo'qmi? – deb so'radi.

– Deyarli yo'q. Faqat...

– Nima faqat?

– Negadir gravitomer strelkasi ikki marta cheksizlikni ko'rsatdi, bir marta nolga tushib qoldi.

– Qancha vaqt shunday bo'ldi?

– Bir necha daqiqa.

– Sababini o'ylab ko'rdingizmi?

– Menimcha, – Uken yana chap ko'zini qisib qo'ydi, – biz uchib o'tayotgan joy yaqinida qandaydir sayyora bo'lsa kerak. Gravitomer strelkasi ana shu sayyoradagi ferromagnit toshlardan iborat katta tog'larning magnit maydoni kuch chiziqlari ta'sirida shunday harakat qilgan.

Azizovni bu javob qoniqtirmadi shekilli, qovog'ini solib, picha sukut qilgach:

– Shavkatni chaqiring. – deb buyruq berdi. Ostonada kema astronomi koʻrinishi bilan Azizov unga yuzlandi:

– Shavkat, marhamat qilib, xarita orqali bizga qaysi joydan uchib oʻtayotganimizni koʻrsatib bersangiz.

– Bir minutga, – Shavkat orqasiga qaytdi-da, xarita koʻtarib qaytib kirdi. Uni stolga yozib, barmogʻini xarita boʻylab picha yurgizgach:

– Mana bu joydan, – deb koʻrsatdi.

Azizov xaritaga sinchiklab tikilarkan:

– Demak, yaqin atrofimizda hech qanday sayyora yoʻq, shundaymi? – deb soʻradi.

– Xuddi shunday! – javob qildi Shavkat qatʼiy.

– Xoʻ-oʻsh, qarshimizda-chi? – Azizov xaritaning bir nuqtasini qoʻli bilan nuqib koʻrsatdi. – Mana bu yerda biz izlab kelayotgan sayyora turibdi. Demak, boshqa sayyoralarga nisbatan bizga eng yaqin turgan sayyora ham mana shuning oʻzi!

– Xuddi shunday, oʻrtoq kapitan. Bu sayyoragacha yana oʻn soatcha yoʻl bosishimiz kerak.

Kutilmaganda Azizovning chehrasida keskin bir ifoda paydo boʻldi. Shartta Ukenga oʻgirildi-da, qattiq tovush bilan:

– Darhol kema tezligi kamaytirilsin! – deb buyruq berdi. Shavkat kapitanga taajjublanib qaradi. Lekin Uken doskadagi son-sanoqsiz tugmalardan birini bosib, richagni burab, oʻsha zahoti buyruqni bajardi. Birozdan soʻng kapitan yana Ukenga yuzlandi:

– Teleobyektivni oʻsha sayyora yoʻnaltirib, ekranni yoqing!

Lahza oʻtmay, qarshilaridagi koʻzguda gʻira-shira yorugʻ paydo boʻldi. Keyin oʻz orbitasida ohista aylanayotgan bahaybat sharning tarxi koʻrindi.

– Hammasi oʻzim oʻylayotganday boʻlyapti, – dedi Azizov. Shavkat tagʻin unga savol nazari bilan qaradi. Lekin kapitan buni sezmaganday yana Ukenga murojaat qilib: – Barcha oʻlchov asboblari nihoyatda sinchkovlik bilan kuzatilsin! Ehtiyot boʻlinglar! – deb tayinladi-da, qayrilib oʻz xonasi tomon yoʻnaldi. Xona eshigiga yetganda shu tomonga kelayotgan Annaga duch keldi-yu, bir zum taraddudda turib qoldi.

Anna uning siniqqan va biroz qoni qochgan yuziga xavotirlanib tikilarkan:

— O'rtiq kapitan, tobingiz yo'qmi? Tinchlikmi o'zi? — deb so'radi. Azizov bo'g'iq ovozda sekingina:

— Tinchlik, Anna, tinchlik, — dedi-da, o'z tovushidan o'zi nafratlanib, tez narigi xonaga o'tib ketdi. Shavkat yelkasini qisganicha, Ukenga yuzlandi:

— Hech narsaga tushunolmadim?

Uken ayyorlik bilan chap ko'zini qisdi:

— Shoshmay tur, faylasuf, hali hammasiga tushunib qolasan!..

8

Kapitan o'z xonasiga qaytib kirdi-yu, yuragini allaqanday tushunib bo'lmaydigan bir vahima bosa boshlaganini sezdi. Nahotki u biror ko'ngilsizlikni oldindan his etayotgan bo'lsa? Azizovdek ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan fazogir kamdankam yanglishar edi. Uning qalbi hech qachon bekorga bezovtalangan emas. Kapitan o'tirgan ko'yi uyqusizlik tufayli biroz qizargan ko'zlarini yumdi.

— Trevoga! — Shavkatning qattiq tovushidan «Olmos»ning butun ekipaji oyoqqa qalqdi.

Kemadagi hamma elektron o'lchov asboblari aqlga sig'maydigan raqamlarni ko'rsatmoqda edi. Shavkatning o'zi ham qandaydir tahlikaga tushib qolgan, ko'zlari qinidan chiqqudek holatda edi. Boshqaruv pultiga birinchi bo'lib kirgan Azizov tugmalarni bosib, kema tezligini sakson foizga kamaytirdi. Lekin allaqanday dahshatli bir hisdan yuragi qinidan chiqqudek urayotganini sezib, hayratga tushdi. Ketma-ket Uken va Annalar ham kirib kelishdi. Ajabo, ularning qiyofasida ham sarosima va dahshat ifodalari qotib qolgandi. Ekipaj a'zolari kutilmagan hodisadan shu darajada qo'rqib ketishgandiki, hatto o'zaro bir og'iz so'z aytishga ham hollari yetmas edi. Qiziq, nima gap bo'lyapti o'zi? Nima yuz bergan bo'lishi mumkin?

Uken qozoqchalab allanimalar deb so'kindi. U azbaroyi qo'rqqanidan xuddi kayfi bor odamday chayqalar ekan, qo'llari bilan g'alati harakatlar qilib, uzuq-yuluq tovushda gapirdi:

– Menimcha, darhol... efirga chiqish kerak!.. Yordam so'rash kerak!

Azizov tanida chumoli yugurganday seskanib ketdi. Uning yodiga Rene voqeasi tushgandi. Kapitan qaltiraganicha, yana tugmalarga yopishdi. Tezlik bilan kema kursini sayyoradan boshqa tomonga burib yubordi. Bu – halokatdan qutulishning birdan-bir to'g'ri yo'li edi. Lekin, hayhot, kema burilmagan, allaqanday sirli kuch irodasiga bo'ysunib hamon olg'a intilmoqda edi! Azizovning yuragi orqasiga tortib ketdi. Yana tugmalarni kuch bilan bosdi, dastaklarni buray boshladi. Biroq uning barcha harakatlari foydasiz edi. Mana endi ular xuddi Buyuk Britaniyalik professor kabi hozir efirga chiqishadi. Fazoda uchayotganlardan fojiali tovushda yordam so'rashadi. So'ngra... so'ngra xuddi «Foton» kemasi kabi... Yo'q, yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas! Darhol chora ko'rish kerak! Chora... Shu payt to'satdan hammayoq suv sepganday jimjit bo'lib qoldi. Go'yo kema fazoda muallaq qolganday, go'yo qudratli ion dvigateli ishdan to'xtab qolganday edi. Aslida esa, dvigatel to'xtamagan, mashinaning bir maromdagi tovushi hozirgina o'tib ketgan dahshatli shovqin-suron oldida hech nima bo'lmay qolgan edi, xolos. Ekipaj a'zolari bu kutilmagan voqea ta'siridan taxtaday qotib qolishgan, go'yo qimir etishlari bilan vahimali to's-to'polon yana qaytalanadiganday tuyulardi.

Birinchi bo'lib Azizov o'rnidan turdi. Bu g'alati hodisaga izoh kutibmi, hamma kapitanga savol nazari bilan tikildi. Buni sezgan Azizov iloji boricha xotirjam ohangda tushuntira boshladi:

– Menimcha, biz noma'lum sayyora atrofida aylanuvchi kichik asteroid yonidan o'tayotib, kishi ongiga ham ta'sir etuvchi quturgan magnit bo'roniga duch keldik, o'rtoqlar.

Boya kema tezligini kamaytirganimizning boisiga endi tushungan bo'lsalaringiz kerak. Agar shunday qilmaganimizda, katta tezlikda magnit bo'roniga duch kelgan «Olmos» to'satdan tormozlanib, o'zining mislsiz inersiya kuchi ta'sirida pachaqlanib ketishi hech gap emas edi. Hozir esa, o'ylaymanki, bo'ron kema korpusiga aytarli hech qanday zarar keltirmagan bo'lsa kerak. Faqat kema sirtini bir ko'zdan kechirib chiqilsa, menimcha, yomon bo'lmaydi. Bu ishni...

— Ruxsat eting, men bajaraman! — dedi Anna kutilmagan kapitaning gapini bo'lib.

Azizov xuddi uni eshitmaganday, gapida davom etdi:

— ...Bu ishni Shavkat amalga oshiradi.

Anna alam bilan labini tishladi. Na chora?... Komandirning buyrug'i muhokama qilinmaydi! Ehtimol, Annaning Vegaga qo'nish paytidagi «sho'xliklari» kapitanga yoqmagandir.

Shavkat buyruqni eshitgach «Есть!» — dedi-da, shasht bilan o'rnidan turib, skafandrini kiygani ichkariga kirib ketdi. Bir necha lahzadan so'ng germoshlyom kiygan Anna «Olmos»-ning fazogirlar shluз kamera deb atashadigan koridorining dumaloq derazachasi — illuminatori ortida turib, tashqarida kema sirtini tekshirayotgan Shavkatning harakatlarini kuzatardi. Shavkat bir uchi beliga, ikkinchi uchi esa kema bortiga mahkamlangan arqonni bir qo'li bilan ushlagancha fazoda, ohista harakatlar qilib, «Olmos» bo'ylab jilar ekan, uni sinchiklab ko'zdan kechirardi. Chorak soatlik tekshirishdan so'ng luk orqali yana shluзga qaytib kirgan Shavkatni qiz kutib oldi:

— Qalay? — deb so'radi Anna ko'zlarini katta-katta ochgancha unga tikilar ekan.

— Hammasi joyida, — dedi Shavkat belidan arqonni yecha turib. Anna unga skafandrini yechishda yordamlasha boshladi.

9

Oradan bir necha soat o'tgach, Shavkatning:

— Diqqat! Diqqat! Noma'lum sayyoraga yaqinlashmoqdamiz! — degan qattiq tovushi «Olmos»ning butun ekipajini yana oyoqqa turg'izdi. Fazogirlar darhol joy-joylarini egallashdi. Boshqaruv pulti qarshisiga o'tirgan Azizov kema tezligini yana kamaytirdi, keyin teleobyektivni ishga tushirdi. Ekranida oylar davomida izlab kelinayotgan sayyoraning tep-tekis sathi ko'rindi.

— Xuddi cho'lga o'xshaydi-ya! — dedi Uken.

— Qiziq, nima uchun cho'lga?... — dedi Azizov. Kapitan hayrat ichra ko'zguga tikilib qolgan, sayyoraning bunday tekis sathga ega bo'lib chiqishini sira kutmagan edi.

Shu payt Annaning hayajonli tovushi eshitildi:

— O'rtog kapitan, dvigatelning aylanish tezligi kamayib ketyapti...

O'zi nima gap? Qudratli ion generatorlaridan quvvat olib ishlayotgan shunday ishonchli mashina nahotki to'xtayotgan bo'lsa?!

Bu fikrdan Azizovning oyoqlarigacha muzlab ketdi. Darhol kemandi kursini o'zgartirib, boshqa tomonga burib yubordi. Aks holda dvigatelning to'xtab qolishi hech gap emas edi-da!

Dvigatelning aylanishini ko'rsatuvchi asbobga bosim berib tikilayotgan Annaning ham ko'ngli joyiga tushdi. Biroq... nahotki kapitan sayyoraga qo'nishdan voz kechgan bo'lsa?..

Azizov ekrandan ko'zini uzmasdi. U ko'zgudagi bu sharni bahaybat magnit tog'laridan iborat sayyora, deb o'ylab xato qilganini payqagan edi.

To'satdan kapitan qattiq tovushda:

— «Burgut» safarga hozirlansin! — deb buyruq berdi. Keyin o'zi «Olmos»ning tezligini kamaytira borib, «сгон» tugmasini bosdi.

Shavkat bilan Uken skafandrlarini tez-tez kiyib, shluzga chiqishdi. «Burgut» eng so'nggi texnika yutuqlari asosida qurilgan g'oyatda mukammal mashina edi. U tashqi ko'rinishi jihatidan bahaybat cho'l toshbaqasini eslatar, taxminan, to'rt metrlik diametrga ega bo'lgan katta po'lat tishli g'ildiraklar-gina bu o'xshashlikni biroz buzib turardi, xolos. Mazkur mashina «Olmos»ning pastki qismiga maxsus mahkamlagich — kronshteynlar yordamida tutashtirilgan edi. Shavkat bilan Uken vaznsizlik holatida terlab-pishib yarim soat davomida mashinani «Olmos»dan ajratishdi. So'ngra Azizovning buyrug'i bilan pastki eshikcha — lukni ochib, ichkariga kirishdi. Nihoyat, «Burgut»ning mislsiz quvvatga ega bo'lgan dvigateli guvillab ishga tushdi. Shavkatning naushniklarida kapitanning qat'iy, ayni paytda biroz xavotirli ovozi yangradi.

— Nihoyatda ehtiyotlik bilan ish tutinglar, o'rtoqlar! Vazifa jiddiy, sayyoraning noma'lum tabiatga ega bo'lgan gravitasion maydoni xususiyatlarini o'rganishingiz, agar imkoniyat tug'lsa, sayyoraga qo'nishingiz va «Olmos» uchun qo'nish joyi tanlashingiz lozim bo'ladi. Shuni yodingizda tutingki, biz Rene jumbog'ini hal qilmasdan qaytib keta olmaymiz! Hatto, bu ishni tugatmasdan shu sayyora yuzasidan halokatga uchrashga ham haqqimiz yo'q. Shuning uchun yana takror-

layman: ehtiyot bo'linglar! Muvaffaqiyat tilayman! Oq yo'l, Shavkat! Oq yo'l, Uken!..

Unga javoban Shavkat:

— Ishonchingizni oqlashga harakat qilamiz! — dedi xotirjam tovushda.

Bir lahzadan so'ng fazoda «Burgut» ohista sayyora tomonga burildi-da, ikki yonidan kumush rang qanot chiqarib, o'rnidan siljidi. Bu paytda Anna boshiga shlyom kiyib, ratsiya orqali Yerga signal yubora boshladi:

— Yer! Yer! «Olmos» gapirmoqda!.. «Olmos» gapirmoqda!..

Ekran oldida o'tirgan Azizov kutilmaganda «Burgut»ning qalqib ketganini ko'rdi. Keyin radiopriyomnikdan Shavkatning xavotirli tovushini eshitdi:

— O'rtoq kapitan, dvigatelning aylanish tezligi negadir keskin pasayib ketdi!..

Kapitan bundan ajablanmadi. U shunday bo'lishini kutgandi, shekilli.

— Olg'a yurishda davom... — kapitan gapini oxiriga yetkazishga ulgurmad. Shu choq hayratlanarli voqea yuz berdi. «Burgut» fazoda go'yo suvga botayotganday g'alati chayqaldi-da, to'satdan oyog'i osmondan bo'lib sayyora tomonga sho'ng'idi.

Shavkat o'tirgan joyidan uchib ketdi, peshanasi bilan qarshidagi illuminatorga borib urildi. Yonidagi Uken ham shipga ag'darilib tushdi. Mashina to'nkarilib ketgani uchun ship bilan polning o'rni almashib qolgan edi. «Burgut» o'zgarmas tezlanishini yo'qotib, yana vaznsizlik holati yuz berdi. Shavkat dahshat ichida asta borib, o'z joyiga o'tirdi. Uken qozoqchalab o'zicha bir nimalar deb g'uldiradi. Keyin qo'llarini yozgancha ohista odimlab, u ham joyini egalladi.

— O'rtoq kapitan, — dedi Shavkat radioperedatchikka, lat yegan chekkasini ushlaganicha, — dvigatel to'xtab qoldi!.. «Burgut»ni boshqarish endi mumkin emas!.. Sayyoraga qo'nishdan... to'g'rirog'i yiqilishdan boshqa choramiz qolmadi...

Azizov, badani junjikib ketgan bo'lsa-da, o'zini bosdi. Shavkatning bunday tushkun kayfiyatdagi xabaridan jahli chiqib, mikrofonga baqirdi:

— Nima — nima?!. Yiqilish?.. Bu haqda o'ylamanglar ham! «Burgut»ning qanotlari nima uchun qurilgan? Stabilizatorni ishga solinglar!..

Shavkat darhol stabilizatorni avtomat tarzda boshqaruvchi tugmani bosdi. Keyin qanotlarni ishga soldi. «Burgut» suvga tashlangan toshday, hamon sayyora tomon shiddat bilan tushib borar ekan, ohista o'nglana boshladi. U endi fazoda vazmin suzishi bilan haqiqiy burgutga o'xshab ketgandi. Ekranga zo'r berib tikilayotgan Azizovning chehrasi yorishganday bo'ldi.

— O'rtoq kapitan, — bu Anna edi, uning rangi oqarib ketgandi, — Yer javob bermayapti!..

— Nima?.. — Azizov xavotirlanib ratsiyaga qaradi. Uning sovuqqon yuziga endi tashvish ifodasi soya tashladi. — Qani, yana chaqiring-chi...

— Yer! Yer! «Olmos» gapiryapti! Javob bering! Javob bering!.. Qabulga o'taman...

Radiopriyomnikdan hech qanday javob bo'lmadi. Qiz yana takrorladi. Hamon jimlik. Azizov asabiy holda qo'llarini cho'ntaklariga tiqdi. Qiziq, u shuncha fazoda uchib, radio to'lqinlarni o'tkazmaslik xususiyatiga ega bo'lgan bunday muhitni sira uchratmagan edi. Yoki bu — mazkur sayyoraning g'alati gravitatsion maydoni ta'siri tufaylimikin? Unday desa, Shavkat va Uken bilan «Olmos» o'rtasidagi radioaloqa uzilgani yo'q-ku?.. Mana tag'in bir jumboq...

«Burgut» qanotlarini yozgancha hamon pastga intilardi. Shavkat illuminatordan qarab, endi qo'nish uchun sayyora sathidan joy qidira boshladi. Sayyora yuzasi, u yer-bu yerda qorayib turgan kraterlar va uncha katta bo'lmagan qo'ng'ir tusli xarsanglarni hisobga olmaganda, asosan tekislikdan iborat edi.

Kutilmaganda guvillagan tovushni eshitgan kema astronomi yalt etib sherigiga qaradi. Uken chap ko'zini qisgancha, yosh boladay suyunib qichqirib yubordi:

— Dvigatel... Dvigatel ishlab ketdi!..

Darhaqiqat, dvigatel guvillab yana ishga tushgandi. Bu xabarni eshitgan Azizov o'midan turib ketganini sezmay qoldi. Qiziq? Buni qanday tushunsa bo'ladi endi. O'nlab sayyoralarni ishg'ol qilishda qatnashgan bu tajribali fazogir bunday g'alati atmosferaga ega bo'lgan planetani birinchi ko'rib turishi edi.

Ratsiya oldida o'tirgan Anna hamon Yer bilan aloqa o'rnatishga behuda urinardi:

— Yer! Yer! Javob bering!.. «Olmos» gapiryapti... Javob bering!..

Shu payt Azizovning naushniklarida Shavkatning ko'tarinki kayfiyatdagi ovozi yangradi:

— O'rtoq kapitan, qo'nishga ruxsat bering!..

Oradan bir necha fursat o'tgach, Shavkat «Burgut»ning muvaffaqiyatli qo'ngani haqida xabar berdi.

Kapitan boshqaruv pulti qarshisidagi ekrandan ko'zini uzmasdi.

Mana, «Burgut» avval kumush qanotlarini yig'ishtirib oldida, so'ngra o'zining yarim metrcha yerga botib kirgan po'lat tishli baland g'ildiraklarini ishga solib, o'rnidan siljidi... «Burgut»ning ratsiyasi oldida o'tirgan Uken hayrat bilan Shavkatga qaradi-da, boshi bilan ratsiyaga imo qilarkan:

— Eshityapsanmi!.. — dedi qandaydir qo'rquv aralash ohangda. Shavkat quloq soldi: «Tut-tu-ut-ut-tu-tut-tu-ut...»

— Notanish signal?.. — dedi u hayajonini zo'rg'a bosib.

— Ha, bu «Olmos»niki emas!

— Demak, sayyorada odamlar bor ekan-da?

— Shunaqaga o'xshaydi. Kurs bo'yicha chap tomonda.

«Menimcha, bu avtomatik stansiya yuborayotgan signallar bo'lsa kerak», — dedi Azizov radio orqali.

«Burgut»ni kapitanning buyrug'i bilan chap tomonga burishdi.

Kapitanning farazi to'g'ri bo'lib chiqdi. «Burgut» Yer vaqti bo'yicha yetti soatcha yo'l bosgach, fazogirlar uzoqdan qirrali uchi osmonga qaragan va «oyoqlari» yerga botib turgan bahaybat raketani ko'rishdi. Yana ham yaqinroq borib raketa korpusiga yirik qora harflar bilan bitilgan «Foton» degan yozuvni o'qishdi. Ha, bu Rene ekipaji mingan «Foton» yulduzkezar kemasi edi.

Aftidan, inglizlarning bu kemasi ham xuddi «Burgut»ga o'xshab, sayyoraning g'alati xususiyatga ega bo'lgan havo qatlamiga kirib qolgach, dvigateli ishdan to'xtab, qulab tusha boshlagan, mazkur qatlamdan chiqib olgandan so'ng favqulodda yana ishga tushib, sayyora yuzasiga qo'nishga muvaffaq bo'lgan edi. So'ngra esa... nahotki ular sayyora

atrofini belbog'day o'rab olgan bu sehrli qatlamdan qaytib chiqishning biror ilojini qilolmagan va uning bir umrli asiri bo'lib qolib ketishgan. Bunga sira aql bovar qilmasdi. «Bizni ham balki «Foton» ekipajining achchiq qismati kutayotgan bo'lsa-chi?» — bu dahshatli fikrdan Shavkatning eti uvishib ketdi. Lekin darrov o'zini bosdi. «Burgut» ingliz kemasining yoniga kelib, tormoz berdi. Fazogirlar har ehtimolga qarshi lazer-to'pponchalarini qo'lga olib, tashqariga chiqishdi.

«Foton» balandligi 20 metrli bahaybat kema bo'lib, uzoq ufqdan chiqib kelayotgan katta cho'g' laganga o'xshash yulduz nurida charaqlab turardi. Fazogirlar to'pponchalarini shay tutib, maxsus zinlardan ko'tarilib, pastki lukni ochishdi-da, ohista odimlab ichkariga kirishdi. Shluzdan o'tib, kayut-kampaniya ostonasida beixtiyor to'xtab qolishdi. Ajabo, kemada hamma narsa saranjom-sarishta edi. Ana, o'rtadagi stol ustida kemanding uchta kundalik jurnali ustma-ust taxlab qo'yilgan. O'ng tomonda radiostansiya sayyora yuzasiga signal tarqatib, avtomat tarzda hamon ishlab turibdi. Yuqorida keng ekranli televizor, radio... Kemada shunday vaziyat hukm surardiki, go'yo hozir boshqaruv pultining eshigi ochiladi-yu, ichkaridan skafandr kiygan odamlar chiqib kelishadiganday tuyulardi.

Lekin unday bo'lmadi. Biroz kutib turishgach, Shavkat bilan Uken ichkariga yurishdi. U yoq-bu yoqni obdan ko'zdan kechirishdi hamki, ichkaridan hech kim chiqmadi. Kayut-kampaniyada suv sepganday jimlik hukmron edi.

Shavkat jurnallardan birini olib ko'zdan kechira boshladi. Undagi yozuvlar ingliz tilida bitilgan bo'lib, gap mazkur sayyoraning geografiyasi, iqlimi, geologik boyliklari haqida borardi. Ingliz tilini yaxshi bilgan Shavkat yozuvlarga ko'z yugurtirdi. Jurnalida yozilishicha, bu sayyorada Yerdan niho-yatda kam topiladigan qimmatbaho va nodir elementlardan uran, radiy, iridiy, kyuriylar ko'plab miqdorda mavjud ekan. Yerdan ulkan qurilmalar vositasida birikmalar tarkibidan juda oz miqdorda ajratib olinadigan bu ajoyib qazilmalarni mazkur sayyoradan tonnalab topish mumkin ekan. O'z-o'zidan ravshanki, agar bu bebaho elementlarni Yerga ko'plab olib borishga muvaffaq bo'linsa, bu — Ona-sayyoraning texnikasi va sanoati taraqqiyotida mislsiz olg'a siljish yuz berishiga,

gigant elektr stansiyalarning qurilishi, xalq hayotining yanada farovonlashuviga omil yaratishi turgan gap edi.

Jurnaldagi boy materialga qarab shunday xulosaga kelish mumkin edi: Rene va uning sheriklari sayyorani bir necha hafta, ehtimol, bir necha oy davomida atroflicha o'rganib chiqishga muvaffaq bo'lishgan va insoniyat uchun g'oyat qimmatbaho ilmiy ma'lumotlar to'plashgan.

Ikkinchi jurnal birinchisiga nisbatan xiyla yangi bo'lib, uning yaqindagina tutilgani shundoq ko'rinib turardi. Jurnal kishini hayajonlantiruvchi ushbu so'zlar bilan ochilardi:

«Salom, aziz hamkasb do'stimiz! Bir kun bo'lmasa bir kun Sizning (yo sizga o'xshagan biror fazogirning) bu yerga qadam ranjida etishingizni bilardik. Siz, ehtimol, bizni izlab kelgandirsiz. Ehtimol, boshqa maqsadda tasodifan kelib qolgandirsiz. Buni bilmadik. Lekin bir narsaga, ya'ni Sizning xuddi «Foton» kabi sayyoraning har qanday materiya xususiyatini o'zgartirib yuboruvchi, noma'lum tabiatga ega bo'lgan havo qatlamiga tushib qolganingiz va sayyora yuzasiga qo'nishdan boshqa chora topa olmaganingizga hech qanday shak-shubha bo'lishi mumkin emas!!

Modomiki shunday ekan, modomiki qismatimiz mushtarak tus olgan ekan, bizning quyidagi maslahatlarimizni jon-dilingiz bilan o'qib chiqasiz degan umiddamiz. Zotan ular bunday og'ir sharoitda ham Ona Yer va insoniyat oldidagi o'z burchingizni to'la tushunib ish tutishingizga imkon beradi...» — Shavkat jurnalni birma-bir varaqlab, endi ko'ziga chalingan jumalarni o'qishga kirishdi: «Bu sayyora qo'ngach, uning asiri bo'lib qolasiz. Uning sirli halqasidan qutulib chiqishning iloji yo'q. Biz «Foton»da bunga bir necha bor urinib ko'rdik. Biroq uddasidan chiqolmadik. Shu sababli Yer bilan aloqa qilishdan ham, sayyoraning sirli «halqa»sidan qutulib chiqishdan ham umidingizni uzing-da, darhol biz boshlagan ilmiy ishni davom ettirishga kirishing. Ha, ishlang! Hayotinigizning eng so'nggi daqiqalarigacha ishlang! Ana shunday bosim mehnatgina Sizni yolg'izlik va og'ir o'ylar girdobidan xalos etadi...»

Bu gaplardan astronomning oyoqlarigacha muzlab ketdi. Rangi bo'zarib, azbaroyi vahima va sarosimaga tushganidan qo'lidagi jurnalni tashlab yuborayozdi. Hamkasbning bu hola-

tiga tushunolmagan Uken unga savol nazari bilan hayron bo'lib tikildi. Shu taxlit bir necha daqiqa jim qolishdi. Olmaotalik fazogirning qat'iy nigohi, nihoyat, Shavkatni o'ziga keltirdi. U zo'r-bazo'r o'zini qo'lga oldi. Ukenni ham vahimaga solishni hozircha lozim topmadi-da, jurnalni yopdi.

Ular boshqaruv kabinasi tomonga yurishdi. Uken ehtiyot yuzasidan o'zi chekkaroqda turib, avtomat bilan eshikni ohista itardi-yu, hayajon ichida:

— Yopiray! — deb yubordi. Boshqaruv pultida, fazogirlarga orqasini o'girib, skafandr kiygan qomatdor bir kimsa o'tirardi! U qimir etmas, xuddi uxlayotganday boshini kreslo suyanchig'iga qo'yib olgan. Ohista yaqinlashdilar.

— Professor Rene! — dedi Shavkat chuqur ehtirom bilan... Buyuk fazogirning xotirasi hurmati boshlarini quyi solib, sukut saqlashdi.

Rene ellik yoshlardagi odam bo'lib, qotma yuzi ozib, sarg'ayib ketgan, qoshlari to'kilib yotardi.

— U nima sababdan o'ldi ekan? — dedi Uken chap ko'zini qisib. — Keyin... qiziq, sheriklari qani?..

Kemada Renedan boshqa hech kim yo'q edi.

— Buni jumallardan bilsa bo'ladi, — dedi Shavkat hamon dilidan g'ulg'ula arimay. Keyin kayut-kampaniya stolidagi uchinchi jurnalni olib, varaqlashga kirishdi. Aftidan, bu — professor Renening kundaligi bo'lib, unda uchish paytida va sayyoraga qo'nganlaridan keyingi kundalik voqealar qisqacha bayon qilingan edi. Shavkat kerakli satrlarni qidirib topdi-da, o'qiy boshladi:

«13 avgust, 20... yil. Mana, bugun sodiq do'stimiz, talantli geofizik olim, «Foton»ning shturmani Vilson bilan vidolashdik. Jasadini «Foton»ning orqasidagi qumloq yerga ko'mdik. Endi navbat Uollesga kelsa ajab emas. Chunki mening ochlikka bardoshim bu ozg'in geolognikiga nisbatan xiyla kuchliroq ekanini bilaman...».

Fazogirlar Renening mag'rur jasadiga tikilgancha bir necha daqiqa jim qolishdi. Qush uchsa qanoti, odam yursa oyog'i kuyadigan bu kimsasiz sayyorada o'limga mahkum etilganliklarini bila turib, hayotlarining eng so'nggi daqiqalarigacha o'z maqsadlariga sodiq qolgan, hayot uchun, insoniyatning farovon kelajagi uchun to'xtovsiz kurash olib borgan bu jasur yulduz kezuvcilarga cheksiz tahsinlar o'qishardi ular!

Ko'p o'tmay Shavkat va Uken Azizovning buyrug'i bilan kemadan Renening jasadi va uchala nodir jurnalni olib chiqib, «Burgut»ga qo'yishdi. So'ngra mashinaning illuminatori orqali yana «Foton»ga tikilishdi. Ha, bu bahaybat kema Rene va uning do'stlarining qahramonligi sharafiga qo'yilgan munosib haykalday sayyora yuzasini bezab, ko'kka mag'rur bo'y cho'zib turardi!

«Olmos» fazo kemasining ekipaji uchun eng og'ir sinov damlari boshlandi.

Kapitan Azizov o'z xonasida hamon odaticha shoshilmay u yoqdan-bu yoqqa odimlar ekan, tabiatning yana bir ulkan tilsimoti oldida lol qolgan, o'zini yosh boladay ojiz his qilmoqda edi. Shu tufayli dili iztirobga to'la, ayni paytda, yo'llariga g'ov bo'layotgan sirli «halqaga» nisbatan qalbida qahr va g'azab hislari ham tug'yon qila boshlagan edi.

U, Rene biz uchun «halqadan» qutulish borasida zora biror foydali gap aytib ketgan bo'lsa, degan umidda ratsiya orqali Shavkat bilan Ukenga:

— «Foton»dagi jurnallarni sinchiklab o'qib chiqinglar! — deb buyurdi-da, beixtiyor mushtlarini tugib, xuddi qafasdagi sherday, xonaning u burchidan-bu burchiga qarab, yana jadal odimlay boshladi.

«Burgut»ning ekipaji Azizovning ko'rsatmasini kutmasdanoq jurnallarni sinchiklab o'rganishga kirishgandi. Hozir Shavkatning ham, Ukenning ham butun fikri-zikri Rene va uning shogirdlarining noyob qo'lyozmalari bilan band, fazogirlarning ko'z o'ngidan birin-ketin ajoyib ilmiy mushohada va xulosalar tizimi o'tmoqda edi.

Kutilmaganda jurnalning eng so'nggi betidagi ustma-ust va qing'ir-qiyshiq qilib chizilgan ikki doirani (uchinchisi yarim halqa shaklida qolgandi) ko'rib, «Sirli halqadan qutulib chiqish mumkin!..» — degan yozuvni o'qigan Shavkat qichqirib yuborayozdi. Yuragi hayajondan gursillab urib ketdi. Yozuvlar qing'ir-qiyshiq harflarda bitilgan edi, chamasi professor Rene ularni umrining eng so'nggi daqiqalarida yozgandi.

Ha, professor Rene yuragi urishdan to'xtashiga bir necha soat, ehtimol, bir necha daqiqa qolganda, mazkur sayyoraning sirli «halqasi» sirtmog'idan qutulib chiqish yo'lini aniqlashga

muvaffaq bo'lgan, lekin, aftidan, ahvolining o'ta nochorligi sababli buni qog'ozga tushirishga ham ulgurolmay qolgandi.

Endi nima qilish kerak? Nahotki ular ham «Foton» ekipajining achchiq qismatiga sherik bo'lishsa?! Nahotki tarix sahifalari yana bir jumboq bilan ortishiga to'g'ri kelsa?.. Yo'q-yo'q! Bunga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ular albatta biror chora topishlari kerak! Albatta!..

Shavkat qo'liga ruchka olib, tezlik bilan jurnalning toza betlaridan biriga aylana shaklini chizdi. Keyin uni xiyla yo'g'on halqa bilan o'radi. Atrofidan yana kattaroq aylana tortdi. Keyin o'ylanib qoldi. Uch, to'rt va besh o'lchamli sistemalarda yopiq zanjir, yopiq halqaga oid matematik nazariyalarni zo'r berib eslay boshladi. So'ngra tag'in ruchkani ishga soldi. U endi jurnalga formula va tenglamalarni bita boshladi. Ularni hozir formulalargina qutqara olishiga allaqachon yigitning aqli yetgan edi.

Shu alfozda Shavkat terlab-pishib, uch soatcha ishladi. Bu vaqt ichida jurnalning bir necha betini harf va raqamlar bilan to'ldirib tashladi. Uning bu ishiga qiziqib ketgan Uken ham tepasiga kelib olgan, indamaygina formulalarni o'qib borarkan, ba'zan qovog'i uyular, ba'zida esa, chehrasi yori-shib, ko'zlari chaqnab ketardi.

— Bo'lmadi, — dedi birdan Shavkat tovush chiqarib, — qayerdadir yanglishganman.

— Menimcha, mana bu yerda musbat emas, manfiy ifoda qo'yilishi kerak, — dedi Uken ko'rsatkich barmog'i bilan ko'rsatib, — gap potentsiallar ayirmasi xususida boryapti-ku!

Shavkat xatoni tuzatdi. Boshqatdan yana hisob-kitob qilishga tushdi. Tag'in ikki soatcha ishladi. Bu o'rtada Azizov bilan ratsiya orqali gaplashib ham olishdi. Kapitan yoshlarning bu ishini qo'llab-quvvatlagan va o'zi ham elektron hisoblash mashinasiga Eltus nazariyasi bo'yicha hisoblash uchun programma tayyorlashga kirishgandi.

Shavkat tag'in mavaffaqiyatsizlikka uchradi. Bunga sari u battar asabiylashib, yana qattiqroq ishga unnar edi. Miyasining azbaroyi zo'r berib ishlaganidan peshanasidan ter quyib ketgan, go'yo shu topda borliq vujudi bilan o'zi ham tenglama va formulalarga aylanganday edi.

Shu taxlitda hisob-kitob bilan bir kunni o'tkazishdi. Ikkinchi kuni ham hech qanday yangilik bo'lmadi. Shavkat

bilan Uken endi ochiqdan-ochiq umidsizlikka tusha boshlashdi. Uchinchi kuni Shavkat, hatto, ratsiya orqali kapitanga tushkun bir kayfiyatda:

— Bizni tashlab ketaveringlar, — dedi, — foydasi yo'q. professor Reneki ish chiqara olmabdimi, biz...

Lekin uning gapi og'zida qoldi. Azizov xuddi uni eshitmaganday baland ovozda:

— Qanday bo'lmasin, «halqa»ning magnit maydoni kuchlanganligini aniqlanglar! — deb buyruq berdi.

Kapitaning jonli va shiddatkor ovozi yosh fazogirlarning qalbida yana umid uchqunlarini yoqqanday bo'ldi.

Azizov murakkab vazifa topshirgandi. Bu — «halqa»ning orasiga kirish va ana shu paytda maxsus asbob shkalalariga qarab kuchlanganlikni aniqlash lozim degan gap edi. Uni amalga oshirish uchun fazogirlar ikki soatcha vaqt sarf qilishdi, ya'ni «Burgut»ni katta tezlik bilan tepaga, «halqa» sari haydashdi-yu, uning chekkasiga yetgach, kosmoxod bir chayqalib orqasiga quladi. Lekin bu paytda Shavkat ham, Uken ham magnitomer strelkasi birdan o'ng tomonga siljib, 52 raqamining ustida to'xtaganini ilg'ab qolishga ulgurishdi.

— Oy-boyay! — dedi Uken boshini ushlab. — Mana buni kuchlanganlik desa bo'ladi. Yernikidan deyarlik yuz marta kuchliroq!

Shavkat «Burgut»ni ohista qayta sayyora yuzasiga haydar ekan, yo'l-yo'lakay kapitanga axborot berdi.

— O'-ho', ellik ikki gaus deng! — dedi Azizov ham hayratga tushib. — Rosa uzoq yashaydigan bo'libsizlar. Bunday kuchli maydon ostida ma'lum vaqt bo'lgan odamning ham umri anchaga uzayadi, bu — tajribada isbotlangan.

Lekin bu quvonchli xabar ham yoshlarning ko'nglini yorishtirmadi. Ular endi ruhan inqirozga yuz tutishgan, qalblaridagi shundoq ham miltillab qolgan umid cho'g'lari tobora so'nib bormoqda edi.

Oradan bir necha fursat o'tgach, Azizov yana qat'iy ovozda:

— Hisob-kitobni davom ettiringlar! — dedi, keyin negadir mug'ambirlik bilan qo'shib qo'ydi. — Magnit maydoni kuchlanganligini hisobga olgan holda, albatta. Ungacha men ham hisob-kitobimni tugataman...

Kapitaning o'zini bunday g'ayritabiiy tutishi yigitlarni yana g'ayrat otiga mindirdi. Shavkat tag'in formulalar yozib, hisoblashga kirishdi.

Oradan yarim soatga o'tgach, birdan Uken quvonch bilan:

— Evrika, faylasuf! Yash-sha!! — deb qichqirib yubordi.

Shavkatning ham chehrasi yorishib ketdi. Charchog'ining zo'rligidanmi, yigit og'ir tin olib, holsizgina gavdasini o'rindi suyanchig'iga tashladi.

Ha, shu topda u katta jasorat ko'rsatgan, «halqa»ning sirtmog'idan chiqish yo'lini matematik usul bilan hisoblab chiqqan edi.

U erishgan natijani Azizov elektron hisoblash mashinasi yordamida chorak soat oldinroq qo'lga kiritgan, yigitlarning xatolarini o'zlari tuzatishlarini kutib, atayin indamay turgandi.

Ular ishlab chiqqan tenglama va formulalar shuni ko'rsatib turardiki, sayyorani o'rab olgan va eni bir necha yuz metrlik noma'lum xususiyatli havo qatlami yaxlit «halqa»ni tashkil etgan ekan. Sayyoraning qutblaridan bu «halqa»ni yorib o'tuvchi torgina yo'llar o'tgan bo'lib, ana shu yo'llardan «Burgut»ga o'xshagan kosmoxodlar bimalol sayyora yuzasiga «kirib-chiqishi» mumkin edi. Keyingi bir kun mazkur yo'llarning koordinatlarini hisoblab chiqishga ketdi.

Nihoyat «Burgut» Azizov va Shavkatning katta ilmiy kashfiyoti tufayli janubiy qutbdagi yo'l orqali sayyora sirtmog'idan qutulib, «Olmos»ning yoniga qaytib chiqishga muvaffaq bo'ldi...

Oradan ikki soat o'tgach, «Olmos» Yerga qarab yo'l oldi. Boshqaruv apparati oldida kapitan bilan Uken qolgan, Anna va Shavkatlar esa, kayut-kampaniyada suhbatlashib o'tirishar edi.

— Qiziq, nahotki Reneday mashhur bir professor mazkur sayyora atmosferasining g'alati xususiyatini payqamay qolgan bo'lsa?

— Kema — sun'iy yo'ldoshdagi astronomik laboratoriya emas, — dedi Shavkat Annaning savoliga javoban, — unda turib sayyora va uning atmosferasini mukammal o'rganish xiyla murakkab ish. Lekin Rene ekipajining birinchi xatosi shunda bo'lganki, ular sayyora atmosferasiga kirgach, dvigatel to'xtayotgan daqiqani ilg'amay qolishgan.

Undan keyin u paytda Eltusning ko'p o'lchamli sistemalarda yopiq zanjirga oid matematik nazariyasi hali kashf etilmagan, shuning uchun Rene ekipaji uni «sirli halqani» o'rganish ishiga tadbiq qilish imkoniga ham ega bo'lmagan.

— Baribir bir narsaga tushunolmadim.

— Nimaga?

— O'zingiz o'ylab qarang, Yer bilan aloqa to'xtab qolsayu, lekin «Olmos» bilan «Burgut» o'rtasidagi aloqa uzilmasa? Demak, radioto'lqinlar qandaydir boshqacha yo'l bilan tarqalar ekan-da?

— Bo'lishi mumkin. Professor Renening yozishicha, sayyora biosferasi uch xil havo qatlamidan tashkil topgan ekan. Birinchi qatlam eng yuqorida bo'lib, o'zidan tashqaridan kelgan radiosignalni ma'lum vaqt o'tkazsa, ma'lum vaqt o'tkazmasligi mumkin. Ikkinchi — materiya xossalarini o'zgartirib yuboruvchi dahshatli qatlam — o'rtada, eng pastda esa, xuddi Yerdagiday havo bosimiga ega bo'lgan va asosan mo'tadil darajali havo qatlami joylashgan ekan. Ko'rinib turibdiki, bizning «Olmos» yuqoridagi qatlarga uning radiosignallarni o'tkazmaydigan davrida kirib, Yer bilan aloqa qilishga behuda uringan...

Anna Shavkatga yana zimdan tikildi. Endi bu tikilishda yigitning chuqur bilimidan hayratlanishgina emas, allaqanday iliq va pinhoniyl bir hissiyot ham yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Xuddi shu payt kayut-kampaniyaga Azizov kirib keldi. U Annaning Shavkatga tikilgan mehr to'la ko'zlariga nigoh tashladiyu, miyasidan yashin tezligida: «Sevadi!» degan fikr o'tdi.

Yoshlar kapitanni ko'rib, darrov o'rinlaridan turishdi. Lekin Azizov bilinar-bilinmas jilmayib qo'ydi-da, odaticha tez-tez odimlab, o'z xonasiga o'tib ketdi.

Ikki yoshning o'zaro iliq munosabatidanmi, Rene «jumbog'i»ni hal etib, orzusiga yetganidanmi yoki o'lim sirtmog'idaligiga qaramay, kelajakni o'ylab tinimsiz mehnat qilgan kekxa va mashhur fazogirning chala qolgan ishini — hisob-kitobini davom ettirib, nihoyasiga yetkazgan yosh avloddan mamnunligi tufaylimi, kapitanning qalbi nihoyat taskin topganday edi...

1970—1971-yillar.

Kitobxonlar ommasiga o'zining hikoyalari, qissalari, romanlari bilan ko'pdan beri tanilib qolgan Hojiakbar Shayxovni o'zbek ilmiy-fantastik adabiyotining qaldirg'ochlaridan biri deb atasa bo'ladi. Bu gapni o'qigan odam taajjub qilishi mumkin – iye, nega endi? Nahotki, fantastika Hojiakbar Shayxovdan boshlanar ekan? O'zbek adabiyotida undan avval fantastika bo'lmaganmi? Bunday taajjubga javoban aytishimiz mumkinki, albatta, fantastika Hojiakbar Shayxov dunyoga kelmasdan avval ham bor edi. «Fantastika» deganini bir so'z bilan «xayolot» deb atash mumkin. «Xayolot» esa inson tafakkurining mangu hamrohi. Adabiyot, qolaversa, ijod fantastika bilan, xayolot bilan birga tug'iladi va u bilan qadam-baqadam, hamnafas taraqqiy etadi. Bundan necha o'n ming yillar avval yaratilgan, ibtidoiy ajdodlarimiz g'orlarning devorlariga qing'ir-qiyshiq qilib chizib ketgan rasmlarda ham fantastika bor. Xalq og'zaki ijodi-chi? O'zi uchar gilamlar, qanotli otlar, uch boshli ajdarlar, bir ko'zli devlar va yana allanimalar... Bular ham fantastikaning ijod bilan uzviy birgalikda qadam tashlashini ko'rsatadi. Shunisi ham borki, bu hodisa faqat o'zbeklargagina xos emas. Mashhur hind eposlari «Maxabxarata», «Ramayana», «Shukasaptati», «Kalila va Dimna», arab ertaklari «Ming bir kecha», boshqa xalqlarning rivoyat va afsonalari. Yozma adabiyotda ham shundoq – Firdavsiyning o'lmas «Shohnoma»sida fantastika qanchalik kuchli bo'lsa, Alisher Navoiy dostonlarida ham shunchalik keng o'rin tutadi. Ovrupo adabiyotidagi Guliverlar, Myunxgauzenlar, Faustlar va boshqa yana o'nlab, yuzlab obrazlar, buyuk Gogolning ijodi, rus folklori fantastikaning juda qadimiy va barqaror hodisa ekanini yaqqol isbot qilib turibdi. Xullas, adabiyot fantastikasiz, xayolotsiz bir qadam

* Maqola qisqartirib berildi (tahririyat).



NOMA'LUM ODAMLAR

Yo'lga chiqishimizga bir kun qolganda, tog'da qattiq jala quydi. Hammamiz palatkalarga kirib biqinib oldik. Tashqarida shamolning xuddi ochiqqan bo'riday na'ra tortishi, daraxtlarning qarsillab sinishi dilga vahima solardi. Yomg'ir palatkalarimiz tomiga to'xtovsiz urib turar, go'yo kimdir tepadan turib allanima bilan tinimsiz savalayotganga o'xshardi.

Jala tongga yaqin tindi.

Guruh boshlig'i Anvar akaning buyrug'i bilan ertalab-danoq safar hozirligini ko'ra boshladik.

Oradan ikki soat o'tmay, o'n olti boladan iborat yosh sayyohlar guruhi Ko'ksoy yoqalab o'tgan so'qmoq bo'ylab yo'lga tushdik. Rejaga muvofiq biz ikki kun yurib Qirqqiz cho'qqisini ishg'ol qilishimiz lozim edi.

Yo'lda uchragan birinchi to'siq Ko'ksoy ustidan o'tgan osma ko'prik bo'ldi. Bu ko'prikdan ilgari ham ko'p o'tganmiz.

Osmako'prik vahimali edi. U azbaroyi eskirib ketganidan hilvirab turar, yuz metrcha pastda, jarlikda esa, ismi-jismiga monand ko'm-ko'k suvli Ko'ksoy shovillab oqardi.

— Ko'prikdan bitta-bitta bo'lib o'tamiz, birinchi O'ktam o'tadi! — dedi Anvar aka.

Darhol oldinga chiqdim. Qaddimni rostlab, orqamdagi qopchiqni to'g'rilab oldim-da, ko'prik sari yurdim. Taxtalar ustidan ohista odimlarkanman, ko'prik xuddi bahaybat belanchakdek ohista silkina boshladi. Yarmiga yetganda yuragim shuv etib ketdi. Ko'prik negadir g'ichirlab ketgandida. Qadamimni tezlatdim.

Ikkinchi bo'lib baland bo'yli, gavdasi ixcham qiz — Muharram o'ta boshladi. U ham bir amallab o'tib oldi.

Ko'prikdan qomatdor, semiz bola — Rustam o'tayotganida, hammamiz taxtaday qotib qoldik. Negaki u taxminan

yarmiga yetganda, ko'prik xuddi birov bolta solganday qarsillab ketdi. Mana, u ko'prik chetidan tortilgan po'lat arqon yoqalab hamon olg'a bormoqda.

To'satdan Anvar aka qichqirib yubordi:

– Temir arqonni ushla!..

Rustam ikkala qo'li bilan arqonga yopishdi-yu, xuddi shuni kutib turganday ko'prik qarsillab ikkiga uzildi. Uning Rustam osilgan yarmi jar yoqasida vahimali osilib qoldi. Kechagi jala shubhasiz o'z ishini qilgandi.

Hammamiz dahshatga tushgandik. Hatto, Anvar aka ham taraddud va sarosimada qolgandi.

Ko'p o'ylab turmay, darhol qopchig'imdan arqon chiqardim-da, ko'prik ustuniga tiralganimcha, ikkinchi uchini pastga, Rustamga qarata uloqtirdim. Rustam o'ng qo'li bilan tezdin arqonga yopishdi. Torta boshladim. Muharram orqadan, kamarimdan tortib turdi. Rustam qurg'ur ham zilday emasmi, birpasda terlab ketdim.

– Shoshilma, o'zing qirg'oqdan nariroq tur! – qichqirardi narigi qirg'oqdan Anvar aka.

Rustam chiqib olishga uch metrcha qolganida, men tirilib turgan ko'prik ustuni joyidan jilib ketsa bo'ladimi! Yuragim orqamga tortib ketdi.

– Mahkamroq ushla! – qichqirdim Muharramga. Arqonni bor kuchimni ishga solib tortdim. Mana, Rustam qo'llari bilan ustunga yopishdi. Arqonni qo'yib yuborib uning yelkasidan tutdim. Biroq shu payt kishini dahshatga soladigan voqea yuz berdi. Ustun o'pirilib chiqdi-da, ko'prikning osilib turgan yarmi taraqlab pastga tushib ketdi. Rustam esa, arqonni ushlaganicha jarga dumalab borarkan, soy chetidan chiqib turgan toshlardan biriga urildi shekilli, bir zum to'xtab qoldi. Ana shu fursatdan foydalanib, arqon uchini qayta ushlab qolishga ulgurdim. Xayriyatki, Rustam arqonni qo'yib yubormadi. Agar belimdan mahkam ushlab turgan Muharram bo'lmaganida bormi, men ham, Rustam ham pastga – jahannamiy chuqurlikka ravona bo'larmidik. Endi uni boshqatdan tortib chiqarish qolgandi.

Anvar aka narigi qirg'oqda sarosimada qichqirar, bizga arqonni aslo qo'yib yubormaslikni uqtirardi.

Yana torta boshladim. Biroq qayoqda deysiz. Qo'rquvdan vujudim qaltirayotgani tufaylimi, bilaklarimda kuch qolmagan, buning ustiga Rustam mendan og'irroq emasmi, uni tortib chiqarish amrimahol ekaniga o'sha zahoti amin bo'ldim. Ammo tushkunlikka yuz tutishga haqqim yo'q, aslo haqqim yo'q edi! Shuning uchun ham o'lib-tirilib arqonni tortishda davom etdim.

Bir payt yelkamda allakimning baquvvat qo'lini his qildim. Yo'q, bu Muharramniki emas. Sezayapman, baquvvat qo'l egasi darrov yonimga o'tdi. Bu — kaltagina qora yaktak kiygan, charm etikli daroz odam edi.

Shu choq hayratdan yoqa ushladim. Xoh ishonimg, xoh ishonmang, haligi odam qo'limdan arqonni oldi-da, osonlik bilan, xuddi qarmoq bilan suvdan baliq tortayotganday ikki-uch tortishda Rustamni qirg'oq yoqasiga chiqardi. Keyin chap qo'li bilan yengilgina, xuddi g'ishtni bir joydan ikkinchisiga olib qo'yayotgandek, bolaning yelkasidan dast tutib Muharramning qoshiga turg'izib qo'ydi. Hayratdan hammaning og'zi ochilib qoldi. Biroq Rustam kuchdan qolgan, oyoqda turadigan holi yo'q edi. Shuning uchun ham darrov qo'ltig'iga kirib, belidan quchoqlab oldim.

— Rahmat sizga, amaki! — qichqirdi narigi qirg'oqdan Anvar aka, u yashnab ketdi, ovozi shodlikka to'la edi. Keyin bizga, soy ustidan o'tgan navbatdagi ko'prik bu yerdan o'n kilometrcha narida ekani, guruh aylanib bu yerga yetib kelguncha qiyalikdagi huv o'sha ko'rinib turgan yakka uyda ularni poylab turishimiz zarurligini uqtirdi. Yengil tortgan bolalar Anvar akaning buyrug'i bilan soy yoqalab yo'lga o'tlanishdi.

Aftidan, qora choponli odam o'sha qiyalikdagi uyning egasi edi, bizni miq etmasdan uy tomon boshladi. Rustamning rangi oqarib ketgan, og'irligini menga tashlab zo'rg'a odimlardi. Muharram ham istamaygina orqamizdan kelar, bu ko'ngilsizlikdan, chamasi xiyla yuragini oldirib qo'ygandi.

Uy juda eski bo'lib, devorlari nurab ketgan, hovlisi esa yo'q edi. U qiyalikka, ilon iziday yuqoriga o'rlab ketgan so'qmoq yo'l bo'yiga qurilgandi. Eshikka yaqinlashishimiz bilan tezak va yana allanimalarning qo'lansa hidi dimog'imizga urildi.

Uy ichi ham qo'lansa hidga to'la edi. Polga qora kigiz to'shalgan, yuqorida eski ko'rpa, bolish.

Ichkariga kirishimiz bilan haligi odam bizga yuzlanib:

— Aytib qo'yay, — dedi kishini qandaydir tashvishga soladigan ohangda, — yerto'laga tushush mumkunmas! Uqdunglarmu?

U o'zbekchani buzib, allaqanday bizga notanish shevada gapirar, «i» o'rniga nuqul «u» ishlatardi. Bir-birimizga qarab qo'ydik. Shu payt haligi kishi taajjubimizni battar oshirib, bizga hayrat bilan tikilarkan:

— Suzlar kimsuzlar o'zu? — deb so'radi.

Bunday g'alati «mezbonni» umrimizda birinchi ko'rib turishimiz edi.

— Yosh sayyohlar? — dedi «mezbon» javobimizni eshitgach, negadir hayron bo'lib. — Bu numa deganu? Yanglushmasam, suzlar ham turuk jon o'ldurmoqchu bo'lub kelgansuzlar?!

Titrab ketdik.

— Nima deyapsiz o'zi! — dedim men sarosima aralash. — Aniqroq qilib gapirsangiz-chi. Biz yosh sayyohlarmiz, tushunyapsizmi, qorli cho'qqini ishg'ol qilmoqchimiz.

— Anuqroq qub aysam, bu uynung egasu ana shunaqa ush bulan shug'ullanadu.

Dahshatga tushdik. «Nahotki bu uyda odam o'ldiruvchi qotil yashasa? Bordi-yu, u josus bo'lsa-chi?...» — bu fikrdan badanim junjikib ketdi.

— Hozir u qayerda o'zi? — so'radim tovushim xirillab.

— Tag'un turuk jon o'ldurganu ketgan, — dedi u negadir g'azabkor bir qiyofada.

«Voajab! Qayerga kelib qoldik o'zi!»

Sarosimada sheriklarimga qaradim. Rustamning rangida rang qolmagan, Muharram esa, uning pinjiga kirib ketguday bo'lib o'tirar, qo'rquvdan tizzalari titrardi.

Qaysidir bir jurnalda odam oyog'i yetmagan o'rmonlar, tog'larda hozir ham odam yeydigan qabilalar mavjudligi haqida o'qigandim. Nahotki mana shu uyda ham o'shanaqa qabila a'zolaridan biri yashasa? Yo'-g'e.

Fikrimni yana haligi odam bo'ldi: u xuddi dahshatli bir nima yodiga tushganday kutilmaganda boshini changalladida, sakrab borib derazadan tashqariga tikildi. Keyin katta-katta qadamlar bilan xonada u yoqdan-bu yoqqa yurarkan, asabiy tovushda o'zicha gapira ketdi:

— Endu numa qilduk? Axur u soydan sakray olmaydi-ku! Qo'nayotgan maxalumuzda bur oyog'u mayub bo'lgan...

Hayrat bilan yana bir-birimizga tikildik.

— Kim o'zi? — so'radi Muharram sekingina.

— Antano, manu sherugum.

— Antano? Juda g'alati ism ekan...

— Axir bunday soydan oyog'i but odam sakray olmaydi-ku? Antano qanday sakrasin?..

Qora choponli kishi negadir bizga yana nafrat bilan tikildi:

— To'g'ru, suzlar sakray olmaysuzlar. Lekin buz sakraymuz!

Yo'q, bu odam, yanglishmasam yo esini yo'qotgan, yo biz bilan hazillashyapti! Gaplarida aqlga sig'maydigan narsalar shu darajada ko'p ediki...

— Sizlar o'zi qayerdan kelgansizlar? — bu boyadan beri qo'rqib-pisib o'tirgan Rustam edi.

Qora choponli odam qo'li bilan tomni ko'rsatdi:

— Buz huv yuqorudan, tog'dan tushganmuz! Antano ham o'sha yerdan... U hozur kelushu kerak. Buroq ko'pruk... soy... Men o'sha yerga ketdum! — u shunday dedi-da, shaxdam odimlab tashqariga yo'naldi.

— O'lay agar, biror gapiga tushungan bo'lsam, — dedi Rustam u chiqib ketgach.

— Ya... yanglishmasam, ular yo Italiya, yo Amerikadan kelgan muhojirlar bo'lsa kerak, — dedi Muharram.

— Tilini hisobga olmaganda yuz qiyofasidan mahalliy tog'lik o'zbekning o'zginasi!

— Menimcha, — dedi Rustam o'ychan qiyofada, — u shu paytgacha odamlarga noma'lum biror tog'lik qabila a'zosi. Ko'rdingizlar-ku, u meni soydan qanday osonlik bilan tortib oldi!..

— Unda egnidagi kiyimini qanday izohlasa bo'ladi? Axir, bilasanmi, qabila a'zolari qanday kiyinishadi!..

- Ha, bu gapingda ham jon bor...
- Undan tashqari bizda qabila nima qilsin?!
- Aytmoqchi, u bizga nega yerto'laga kirish mumkin emas dedi-ya?

Derazaga qaradim. Qora choponli odam allaqachon uydan uzoqlashib ketgan, soy bo'yida turib zo'r berib uzoqlarni kuzatardi.

– Menga qaranglar, – dedim ovozimni pasaytirib, – sizlar derazadan kuzatib turinglar. Men yerto'laga tushib chiqaman. Anovi odam qayta boshlasa, darrov xabar qilaszlar, tushundinglarmi?

– Tushundim, – Muharram darrov deraza tagiga kelib o'tirdi.

Yerto'la uying narigi chekkasida bo'lib, eshigi yaxshilab berkitilgan va tutqichlariga katta g'o'la tiqib qo'yilgandi. G'o'lani ohista chiqardim-da, sekin eshikni itardim. Yerto'laning ichi qorong'i bo'lib, hech nimani ilg'ab bo'lmasdi. Devorni paypaslab, chiroqni yoqib yuborgan edim, birpasda hammayoq sutdek ravshanlashdi. Ana, burchakda ko'mir uyumi. O'rtada saksovul parchalari tartibsiz sochilib yotibdi. Bu yoq chekkada besh-olti qop somon. Yerto'lada boshqa aytarli ko'zga tashlanadigan hech nima yo'q.

«Qiziq, nega yerto'laga kirish mumkin emas, dedi?» – bu savol hamon tinchlik bermasdi menga. Qo'limga saksovul bo'lagini olib, somonni kovlashtirib ko'rishga qaror qildim. Engashdim-u, qotib qoldim: somon orasidan allanimaning g'ir-g'ir tovushi eshitilardi, xuddi allaqanday ko'zga ko'rinmas jaji motor bir maromda tovush chiqarib to'xtovsiz aylanayotganday. Qo'limdagi saksovul bilan ohista somonni kovlashga kirishdim. Mana, saksovul parchasi birdan qandaydir qattiq narsaga borib taqaldi. Somonni ikki chekkaga surib qarasam, chamadonga o'xshagan allaqanday qop-qora bir apparat! Uzluksiz g'irillab turibdi! Ag'rayganimcha tomosha qila boshladim. Bunaqasini ilgari sira ko'rmaganman. Qandaydir notanish o'lchov asboblari. «Chamadonning» o'rtasida katta qora tugma. Chekkalarida ham bir qancha tugmalar, biroq ular o'rtadagiga nisbatan

kichikroq. O'lchov asboblari va tugmalarning tagida esa, turli shakllarda jamlangan g'alati kalta-kalta chiziqlar. Xitoylar shunday yozishadi shekilli?..

Shu payt orqamda allakimning sharpasini sezib, seskanib tushdim. Shartta o'girildim-u, ko'nglim joyiga tushdi: ostonada Rustam turardi.

— Nima bor ekan? — dedi u sekin odimlab menga yaqinlasharkan.

— Nimaligiga sira aqlim yetmayapti, — dedim apparatga ishora qilib.

— Tugmalarni bosib ko'rdingmi? — dedi Rustam bamayli-xotirlik bilan «chamadonga» engasharkan. Uning odati shu o'zi: texnikaga juda ishqiboz, biror apparatni ko'rib qolsa bo'ldi, o'tirib olib kovlashtirgani-kovlashtirgan. Vintlarigacha chiqarib olib, qayta qo'ymasa, ko'ngli joyiga tushmaydi.

— Tegma! — qichqirdim unga, lekin kechikkan edim. Rustam «chamadon» o'rtasidagi katta tugmani bosib yubordi. Ajab, apparatning g'ir-g'ir ovozi ham o'chdi.

Xuddi shu choq Muharramning hayajon bilan qichqirib yuborganini eshitib, o'zimni tashqariga otdim. Uyga kirsam, qiz deraza oldida turganicha dag'-dag' qaltirar, tili bir og'iz so'zga kelmasdi.

— Nima gap o'zi? Tinchlikmi?

— Anavi... k... kishi... — dedi Muharram duduqlanib, — birdan yiqilib... tushdi!.. Xuddi o'-o'q tekkanday...

Derazaga tikildim. Darhaqiqat, qora choponli odam soy bo'yida mukkasidan tushib yotardi. Tashqariga yugurdim.

Voajab qora choponli odam uzala tushib yotarkan, boshi bir yuz sakson gradusga buralgan, mutlaqo jonsiz edi! Men avval shubhasiz uni birov chetdan turib otgan, deb o'yladim. Shuning uchun ham chor-atrofga olazarak bo'lib tikilarkanman, orqamdan yetib kelgan Rustamga:

— Ko'tarib uyga olib kiramiz, oyog'idan ushla! — dedim.

Rustam oyoqlaridan, men yelkasidan avaylab ko'targancha tezda uyga olib kirdik. Qo'rquvdan rangi quv o'chib ketgan Muharram eshik ochib bizni kutib oldi. O'likni yuqoriga, eski ko'rpa ustiga yotqizdik. Keyin uning ko'kraklarini ochib, o'q izini qidirarkanman, so'radim:

– Muharram, u yiqilishdan oldin sen o'q ovozi
eshitdingmi?

– Yo'q, s... sira... eshitganim yo'q!

– Biz ham eshitmadik, – dedi Rustam.

– Qiziq, – dedim men uni qayta choponiga o'rarkan-
man, – badanida ham hech qanday o'q izi ko'rinmaydi.

– Unda nima sababdan o'ldi ekan?..

– Muharram, ayt-chi, uning oldiga birov kelganini
sezmadimgi?

– S... sira... sezganim yo'q. Sizlar ketgandan k... keyin...
ko'z uz...zmay qarab turdim. Avval s... soy bo'yida u yoqdan-
bu yoqqa yura boshladi... Huv tog' tomonga u-uzoq... tikildi.
Keyin o'q yeganday... birdan dumalab tushdi. L... lekin...
o'q ovozi eshitmadim!..

Qiziq?.. Demak, o'q otilmagan. Lekin u xuddi o'q
tekkanday yiqilgan. Uning oldiga hech kim kelmagan. Lekin
bo'yni kimdir tomonidan vahshiylarcha bir yuz sakson
gradusga burab tashlangan.

Kutilmaganda Rustam:

– Topdim! – deya xitob qildi. Darrov unga yuzlandik. –
Yanglishmasam, Muharram men haligi apparat tugmasini bosib
yuborgan paytimda qichqirib yubordi, to'g'rimi! U qichqirgan
mahalda esa, mana bu odam yiqilib tushdi. Menimcha,
hamma gap ana o'sha apparatda!..

Ha, gapida jon bor. Demak... nahotki u – ODAM
bo'lmasa? Agar ODAM bo'lganida, apparat bilan ikkalasi
o'rtasida qanday bog'liqlik bo'lishi mumkin! Unda kim?
Elektron robotmikin?..

So'nggi fikrdan vujudim junjikib, badanimda chumoli
yugurganday bo'ldi. Murdaga sinchiklabroq tikildim. Yo'g'-e,
sira robotga o'xshamaydi. Axir robotlar «temir-tersaklar»
yig'indisidan jamlangan mashinalar-ku! Bu odamning esa
gavdasi, yuz tuzilishi, umuman ko'rinishi shu darajada
tabiiyki!..

– Nima qilamiz? Apparatni olib kelaymi? – dedi Rustam.

– Yo'q. Hozircha kerakmas.

To'satdan Muharram yana qichqirib yubordi. U derazaga
hayajon bilan tikilarkan, duduqlanib:

– S... soyning narigi betida... odam!! – deya xitob qildi.

Buni qarangki, soyning narigi tomonida xuddi oldimizda yotgan murdanikiday qora chopon kiygan va qo'lida yerto'-ladagiday qora apparat ko'targan baland bo'yli bir kishi oqsoqlanganicha u yoqdan-bu yoqqa yurardi. Aftidan, u soydan o'tish yo'lini qidirmoqda edi. Bu, shubhasiz, Antano edi.

Shu choq kishini hayratga soladigan voqea sodir bo'ldi. Haligi odam orqasiga tisarildi-da, bir oyoqda irg'ishlab yugurganicha o'zini soy tomonga otdi. Voajab: u qushday yengillik bilan berigi qirg'oqqa uchib o'tdi-da, xuddi hech nima bo'lmaganday bamaylixotirlik bilan qomatini rostlab, biz tomonga yurib kela boshladi.

Muharram azbaroyi qo'rqib ketganidan yig'lab yubordi. Rustam ikkalamiz ham qattiq hayajonga tushgandik.

Ha, bular o'zimizning odatdagi ODAMlar emasligiga endi shubhamiz qolmagandi. Zotan eni o'ttiz besh-qirq metrdan ziyodroq bo'lgan soydan sakrab o'tish (buning ustiga mayib oyoq bilan) ODAM uchun sira aqlga sig'maydigan ish edi.

Shuning uchun ham qarshimizdagi «o'lik» kutilmaganda tirilib... (ha, tirilib!), bo'ynini qirsillatib ohista boshini ko'targanida, aytarli o'zimizni yo'qotib qo'ymadik. Faqat Muharramgina bir chinqirib, o'zini burchakka oldi.

Qora choponli odam o'rnidan ko'tarilarkan, bizga yeb qo'ygudek bo'lib tikilib:

– Apparatnu kum o'churdu? – deb so'radi. Hech qaysimizdan sado chiqmagach, burnini burnimga tekkizgudek menga ro'baro' kelarkan, tovushini yana balandroq ko'tardi:

– Apparatni kum o'churdu?

– Men, – dedim, nihoyat, jur'atsizgina.

– Yo'q, u emas! Men!.. – deb yubordi shu payt Rustam. – Bilmasdan o'chirib qo'ydim...

U zaharxandalik bilan Rustamga yuzlandi:

– Bulmasdan emush-a?! – dedi labini burib. – Bulaman numa uchun o'churganlarungnu. Menu ham o'ldurmoqchu bo'lgansuzlar! Jo'rttaga o'churgansuzlar!?

– Yo'q, bu gaplarga ortiq chidab bo'lmasdi.

– Axir nima uchun biz sizni o'ldirishimiz kerak? – dedim jahl aralash.

– Shuning uchunku, suz menu yemoqchusuz!..

Sochlarim tikka bo'layozdi.

– Menga qarang, siz o'zi qayerdan kelgansiz? – dedim g'azab bilan.

U yana boshi bilan tomga ishora qildi.

– Buz yuqorudan tushganmuz. – dedi bamaylixotir.

Battar asabiylashdim. Shu payt eshik ochildi-da, ostonada qora apparat ko'targan yana bir qora choponli odam ko'rindi.

Ikki qora choponli kishi quchoqlashib ko'rishib ketishdi.

Antano hozirgina «tirilgan» odamga juda o'xshar, quyuq mo'ylovi, boshidagi eski gilam do'ppisi va cho'loqligi bilangina undan ajralib turardi, xolos. Ajabo, ular o'zaro ovoz chiqarib emas, balki unsiz allaqanday qo'l harakatlari yordamida gaplashishardi. Xuddi soqov va gung odamlarday.

Negadir bizga nafrat bilan qarab, allanimalar haqida o'zaro uzoq «firk»lashdilar.

Gaplari tugadi shekilli, birdan taraddudga tushib qolishdi. Tashqariga yo'l olisharkan, biz bilan xayrlashishni xayollariga ham keltirishmasdi. G'izillab yerto'ladan qora apparatni olib chiqishdi-da, soy tomonga ravona bo'lishdi.

Mana, nima qilarimizni bilolmay, derazadan kuzatib turibmiz. Haligilar soyga yetishlariga o'n metrcha qolganida, birdan yugurib qolishdi. Soyning ustidan qushday ohista uchib o'tishdi-da, chamadonlarini qo'ltiqlagancha, toqqa qarab jadallab ketishdi.

Tashqariga chiqdik. Ko'zdan g'oyib bo'lgunlaricha orqalaridan kuzatib turdik.

Bizga ko'p narsalar qorong'iligicha qolgan bo'lishiga qaramay, shu narsa aniq ediki, ular – yerlik odatdagi ODAMlar emas! Balki mirrixliklardir? Balki chindan ham o'zga sayyoraliklar yuborgan elektron-robotlardir? Kim biladi yana...

Lekin ularning kim va qayerlik bo'lishlaridan qat'i nazar, odatdagicha, ovqatlanib hayot kechirmasliklarini ham biz payqab olgandik. Menimcha, ular haligi chamadonga

o'xshagan apparat tarqatadigan qandaydir bizga noma'lum tabiatga ega bo'lgan energiyadan quvvat olib yashashadi. Bu fikrga Rustam ham qo'shildi.

— Boyagi odamning «tirilgan» paytini eslagin-a, — dedi u, — sherigi Antano soydan sakrab o'tishi bilanoq shu hodisa yuz berdi. Antanoning qo'lida esa, xuddi o'shanday apparat ishlab turgan edi. Demak, ularning yashashi mana shu apparat bilan mustahkam bog'liq ekan. Demak, ishlab turgan o'sha apparat atrofidan o'tgan ma'lum masofadagi aylana ichida bemaol hayot kechiraverishar ekan!..

Shu choq uy yonidan o'tgan so'qmoq yo'l boshida eshak mingan oppoq soqolli bir chol ko'rindi. Chol eshagini yo'rg'alatganicha to'ppa-to'g'ri bizning qoshimizga kelib to'xtadi. Salom berdik. Alik oldi. Biz boyagi g'alati «odamlar» ta'siri tufaylimi, cholga ham shubha bilan tikildik. Yo'q, aftidan u shu yerlik keksa otaxonlardan edi.

— Ha, bolalarim, — dedi u allaqanday xirillagan ovozda, — bu yerda ne qilib turibsizlar?.. Hm... Shundaqami... Uyda hech kim yo'q ekanmi?.. Juda soz! Unday bo'lsa, uydan uzoqroq ketganlaring ma'qul. Ha, shunday qilinglar. Egasi qo'polso'z odam. Brakonyerligi uchun ikki yil turmada ham o'tirgan. Uning dastidan bu atrofda qurimagan hayvon qolmadi. Hammasini otib, bozorga olib chiqib sotadi. Yanglishmasam, o'zi hozir ovda. Doim qora chopon kiyib yuradi. Kelib qolsa, tag'in dilingizni siyoh qilib yurmasin...

Chol shunday dedi-da, eshagini niqtaganicha so'qmoq bo'ylab yana yo'lga tushdi. Uning bu gaplari favqulodda ko'zimni ochdi. Menga endi ko'p narsa ravshanlashgandi.

O'zga sayyoralik haligi g'alati «odamlarga» birinchi duch kelgan yerlik kishi mana shu uyning egasi bo'lgan. Ular dastavval yashirincha uning hayot tarzini o'rganishgan. Keyin uning yuz tuzilishi, kiyinishlariga taqlid qilib, o'zlariga maska va kiyimlar yasashgan, toki yerliklar ularning boshqa sayyoradan kelganliklarini payqashmasin. So'ng esa, unikida yashab, til o'zlashtira boshlashgan. Bu yerda boshqa bir savol tug'ilishi mumkin: xo'sh ularga yerliklardan o'z qiyofasini yashirish nega zarur bo'lib qoldi

ekan? Menimcha, mazkur savolga ikki xil javob bersa bo'ladi:

Birinchidan, ular bizning atmosferada o'z qiyofalarida yashay olmasliklari mumkin, negaki, biz nafas olganimizda, ichimizga yutadigan asosiy gaz kislorod bo'lsa, ularniki balki vodoroddur, balki ftordir. Maskalar ular uchun nafas olish manbayi bo'lib xizmat qilishi sira ehtimoldan uzoq emas.

Ikkinchidan, ular yerda oliy darajada taraqqiy etgan aql egalari mavjudligiga shubha bilan qarashgan-u, sayyoramizda yovvoyi, yirtqich mahluqlarni uchratishdan xavfsirab, birinchi galda ularning qiyofasiga kirishni o'zlariga maqsad qilib qo'yishgan. Zotan bu narsa o'z hayotlarini muhofaza etishda asosiy omil, deb hisoblashgan.

Mazkur uyning egasi esa, ularning o'zga sayyoralik ekanini hatto xayoliga ham keltirmagan. Odatdagi o'tkinchilar deb o'ylab, pisand ham qilmay, o'z ishi bilan ovora bo'lgan, ularga qo'pol muomala qilgan.

Ha, menga endi ko'p narsa tushunarli edi. Qora choponli odam boya bizga bejiz nafrat bilan tikilmagan, apparatini o'chirib qo'yganimizda bejiz g'azablanmagan. U, shubhasiz, bizni ham uy egasiga o'xshagan odamlar toifasidan deb hisoblagan. Darvoqe, u Yerda odamlar turlicha ekanining farqiga bormaganmikin? Nahotki birgina yomon odamga qarab turib, butun sayyora odamlari haqida fikr yuritish mumkin bo'lsa?..

Biroq har nima bo'lganda ham shu narsa aniq ediki, biz odamlar oldida kechirib bo'lmas xatoga yo'l qo'ygandik. Axir o'ylab qarang: insoniyat o'zga samoviy jismlardagi oliy aqlga ega qardoshlari bilan uchrashishni necha asrlardan beri orzu qiladi. Biz esa, ana shunday olamshumul voqeaning guvohi bo'lsag-u, uni vaqtida payqamasak?! Ustiga ustak Yerimiz odamlari haqida ularga ijobiy fikr uyg'otishning ham uddasidan chiqa olmasak?..

Aslini olganda, hammasiga aybdor — mana bu uyning egasiku-ya...

Uy yoniga Anvar aka boshliq guruh yetib kelganida, unga aytgan birinchi gapim shu bo'ldi:

— Manavi uy egasini sudga berish kerak!..

Anvar aka voqeani eshitdi-yu, lekin indamadi. O'ylanib qoldi. Nima ham derdi, axir?! Baribir fazodan tushganlar endi yo'q. Allaqachon o'zlari istiqomat qilayotgan sayyoraga uchib ketishgan. Buning ustiga bizning qo'limizda ularning kelib ketgani haqida biror e'tiborga arzigulik dalil ham qolgani yo'q. Shunday ekan, yana qanday gap bo'lishi mumkin?..

Qiziq, Yerimizga yana qaytib kelisharmikin?.. Qani endi kelishsa. Qani endi...

